



Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda Ha nocty

**O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri**

2025-yil 11-dekabr
payshanba

№ 50 (4744)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan

Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

YANGI O'ZBEKISTON – YANGI ICHKI ISHLAR ORGANLARI



Farg'ona viloyati IIB Tibbiyot bo'limi poliklinikasi binosi zamonaviy ko'rinishda qayta ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.

Tadbir davomida tibbiyot bo'limiga barcha zarur jihozlar bilan to'liq ta'minlangan zamonaviy tez yordam avtomashinasi va yangi xizmat avtomashinasi topshirildi.



ZIYRAKLIK VA TEZKORLIK SAMARASI



Samarqand viloyati IIB Tezkor boshqaruv markazida xizmat o'tayotgan JTSB PPX batalyoni 5-otryadi inspektori, safdor Ibrohimxo'ja Tovboyev e'tiborini shaharning «Qircha» mahallasi hududida yurgan shaxsning bejo harakatlari o'ziga tortdi. Kuzatuv kameralari orqali uning tana va yuz tuzilishidagi belgilarni qidiruvdagi shaxslarga solishtirib ko'rdi. Ayrim belgilari juda mos kelayotganini darhol rahbariga xabar qildi.



ISHONCHGA ELTUVCHI YO'L

Axborot asrida yoshlarning ruhiy muvozanatini saqlash va shaxsiy rivojlanishiga ko'maklashish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. IIV Surxondaryo akademik litseyida bu vazifani 2021-yildan buyon sidqidildan ado etib kelayotgan psixolog Halima Bekmurodovaning ish faoliyati bunga yaqqol misol bo'la oladi.



FORISH TOMONLARDA

PURVIQOR TOG'LAR DIYORI

Jizzax viloyatining qariyb yarmini qamrab olgan, tabiati va tarixi o'ziga xos bo'lgan Forish tumani 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. 1962-yilda Nurota va Jizzax tumanlari tarkibiga qo'shib yuborilgan. 1964-yil qayta tiklanib, avval Samarqand, keyin Sirdaryo va 1974-yildan buyon Jizzax viloyati hududiga qo'shilgan. Maydoni 9,53 ming km² bo'lgan tuman shimol va shimoli-sharqdan Qozog'iston, sharqdan Sharof Rashidov, Zafarobod, Arnasoy, Do'stlik, Mirzacho'l, janubdan G'allaorol, g'arbdan esa Qo'shrabot va Nurota tumanlari bilan chegaradosh. Hududda 100 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi.

Forish tumani IIB faoliyati bilan yaqindan tani-sharkanmiz, voyaga yetmaganlar bo'yicha katta inspektor-psixolog, leytenant Tilovqobil Ashurov, voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan

– Tumanda 24 ta mahalla fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, ulardan 3 tasi «qizil», 7 tasi «sariq» va 14 tasi «yashil» toifada, – deydi IIB boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik Jasur Tilavov.



ishlash guruhi katta inspektori, katta leytenant Muxlisa Qorabekova, xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, leytenant Sevara Egamberdiyeva, ma'muriy amaliyot guruhi katta inspektori, katta leytenant

– «Yashil» toifadagi «Mustaqillik» mahallasi profilaktika inspektori, kapitan Sardor Esirgapov MFY raisi Norilla Xidirboyev hamda yettilikning boshqa a'zolari bilan hamkorlikda hudud xavfsizligini ta'minlab kelmoqda.



Olmos Javqonov, «Oqtom» MFY profilaktika katta inspektori, kapitan Vahob Balhiyev zimmalariga yuklatilgan vazifalarni ado etish bilan bandligiga guvoh bo'ldik.

– Mahallamizda 3100 nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi, – deydi N. Xidirboyev – 3 ta umumiy o'rta ta'lim maktabi va 2 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti yoshlar tarbiyasiga xizmat qilmoqda.



Aholining asosiy qismi uzumchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi.

Tuman IIBda ustoz-shogird an'anasi davom etmoqda. Bu jarayon yosh kadrlarning kasbiy kamolotiga katta turtki beradi. Tergov guruhi

sabati, fidoyiligi va mehnat-sevarligidan darak beradi.

Bo'limning migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi katta mutaxassisi, kapitan Eldor Nurqulovning ta'kidlashicha, yil boshidan buyon 2 nafar shaxs O'zbeki-



surishtiruvchisi, leytenant Mirzohid Mahkamov shunday umidli yoshlardan biri. U us-tozi – kapitan Temur Hayitov hamda tajribali hamkasblarining amaliy ko'rsatmalari va maslahatlari asosida o'z

bilim va mahoratini izchil ravishda oshirib bormoqda. Yil boshidan buyon 50 dan ortiq surishtiruv ishini amalga oshirgani esa yosh xodimning xizmatga bo'lgan mas'uliyatli muno-

ston fuqaroligiga qabul qilinib, mamlakatimiz fuqarolari safidan joy oldi. Bu esa davlatimizda inson huquqlari va manfaatlarini ta'minlash, har bir shaxsning taqdiriga e'tibor bilan yondashish borasida amalga oshirilayot-

gan islohotlarning amaliy samarasidir. Shuningdek, 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni munosabati bilan 16 yoshga to'lgan bir guruh yoshlarga ID-kartalarni tantanali topshirish tadbiri o'tkazilgani ham bu yilning o'ziga xos ahamiyatli voqealaridan biri bo'ldi.

Fidoyi xodimlar har doim osoyishtalik va xavfsizligimiz tayanchi bo'lib kelgan. Ayniqsa, profilaktika katta inspektori, mayor Oybek Urishov, voyaga yetmaganlar bo'yicha inspektor-psixolog, kapitan Umid Eshtayev, katta tezkor vakil, mayor Obid Nurullayev, VSH boshlig'i, podpolkovnik Habibulla Nurullayev, kadrlar bilan ta'minlash guruhi katta inspektori, katta leytenant Shohjahon Salomov, murojaatlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, katta leytenant Maftuna Aliyeva kabi xodimlar alohida e'tirofga loyiq.

Forish tumani nafaqat purviqor tog'lari, betakror manzaralari va tabiiy boyliklari bilan, balki so'nggi yillarda barcha sohalarda kuzatilayotgan ulkan o'zgarishlari bilan ham alohida ajralib turadi. Eng muhimi, bu rivoj-



lanish jarayonida tuman IIB xodimlarining o'rni beqiyos. Ularning sa'y-harakati tufayli hududda barqarorlik hukm surmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



CHINAKAM IBRAT

Yakkabog' tumanida yakunlanayotgan yilda jamoat tartibini saqlash, kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha salmoqli natijalarga erishildi. Bunda, shubhasiz, tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Shuhrat Choriyevning hissasi katta bo'ldi.

Joriy yilning o'tgan davrida jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt o'ldini olishda birmuncha yutuqlarga erishildi. Xususan, talonchilik hamda badanga o'rtacha og'ir tan jarohati yetkazish jinoyatlari umuman sodir etilmadi. Badanga yengil tan jarohati yetkazish holatlari 50 foizga kamaydi. Mahallalardagi jinoyatchilik darajasi qariyb 40 foizga kamaygani esa amalga oshirilgan profilaktik ishlar samaradorligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, aniqlanadigan jinoyatlar bo'yicha ko'rsatkich ham o'tgan yilga nisbatan 25 foizga yaxshilangan.

Tumanda jinoyatchilikning oldini olishda profilaktika inspektorlari, mahalla mutasaddilari va aholi hamkorligi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fuqarolar bilan doimiy muloqot va ochiqlikni ta'minlash maqsadida 36 marta sayyor qabul tashkil etildi. Bu qabullar davomida jami 70 ta murojaat qabul qilinib, ularning 46 foizi ijobiy hal etilgan bo'lsa, 18 ta murojaat bo'yicha malakali huquqiy tushuntirish berildi.

Joriy yilning o'tgan davrida kriminogen vaziyati og'ir mahallalarda e'tirofga loyiq ishlar amalga oshirildi. Jumladan, «qizil» toifadagi mahallalarda 180 ta «namunaviy xavfsiz yo'lak», 69 ta «namunaviy xavfsiz ko'cha» tashkil etildi. Aholi gavjum to'planadigan joylar va ko'chalarga 541 ta, ta'lim muassasalarining kirish-chiqish joylariga 167 ta «RTZ» kameralari, mahallalarning asosiy joylariga 167 ta yuzni va avtoraqamlarni tanib oluvchi maxsus kameralar o'rnatildi. Mahallardagi 909 ta yakka tartibdagi va ko'p qavatli xonadon, 65 ta savdo-maishiy xizmat ko'rsatish obyekti texnik qo'riqlovga olindi. Natijada 3 ta mahalla «qizil»dan «sariq», 4 ta mahalla «yashil» toifaga o'tdi.

Qariyb chorak asrdan buyon el-yurt osoyishtaligi yo'lida oddiy xodimlikdan rahbarlikkacha bo'lgan mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan, turmush o'rtog'i Yulduzxon bilan uch nafar farzandni tarbiyalab kelayotgan podpolkovnik Shuhrat Choriyevning xizmatlari beiz ketmadi. U O'zbekiston Respublikasi



Prezidentining 2025-yil 24-oktabrdagi «Ichki ishlar organlari xodimlari kuni munosabati bilan bir guruh xodimlarni mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga binoan, «Sodiq xizmatlari uchun» medali bilan taqdirlandi.

– Otam biz uchun chinakam ibrat namunasi, – deydi lavhamiz qahramonining katta o'g'li Suhrob. – Bolaligimda uyga kelishlarini doim kutib o'tirardim. U kishiga

havas qilib, men ham shu sohada xizmat qilishni maqsad qilganman. Shu niyatda hozir Huquqni muhofaza qilish akademiyasida tahsil olayman. Kelajakda men ham ichki ishlar organlarida xizmat qilib, el osoyishtaligi, yurt tinchligini va qonun ustuvorligini ta'minlashga o'z hissamni qo'shaman.

Sodiq RAHIMOV,
o'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.

KASB FIDOYISI

ISHONCHGA ELTUVCHI YO'L

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

Litseyda o'quvchi yoshlar hamda pedagog-xodimlarning psixologik holati, o'quv muhitining sog'lom va barqaror bo'lishiga alohida e'tibor qaratilgan. Halima Bekmurodova har bir o'quvchi bilan individual suhbatlar o'tkazib, ularning shaxsiy psixologik portretini shakllantirib boradi. Bu jarayonda temperament, diqqatni jamlash, xotira, stress darajasini aniqlash bo'yicha testlar o'tkaziladi. Har hafta o'tkaziladigan guruh treninglari esa o'quvchilarning o'ziga xos ehtiyojlari va test natijalaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Treninglar faqat amaliy mashg'ulotlar bilan cheklanib qolmay, ong va ongosti, iroda, nutq madaniyati, motivatsiya, stress tushunchasi kabi mavzularda nazariy ma'lumotlar ham beriladi. Bu yoshlarning shaxsiy va kelajakdagi kasbiy motivatsiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

– Kuzatuvlar davomida ko'plab o'quvchilarda o'ziga nisbatan ishonch pastligiga duch keldim, – deydi lavhamiz qahramoni. – Ayniqsa, kasb tanlashda qarorni ota-onasi bergan bolalarda ruhiy bosim yuqori bo'lishi, o'qishga kirish jarayonida



sinovlardan o'ta olmaslik xavotiri ularni bezovta qilgan holatlar ko'p uchragan. Suhbat va psixologik ko'makdan so'ng ko'plab o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchi ortgani, barcha imtihon va sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgani kuzatilgan.

Sir emas, hozirda yoshlar hayotiga chuqur kirib kelgan internet va telefonlar ularning diqqatini parchalab, o'quv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois psixolog tavsiyasi bilan litseyga o'quvchilar-

ning telefon olib kirishi cheklandi. Natijada o'quvchilarda xotira, bilimni o'zlashtirish, diqqatni jamlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangani qayd etildi.

Ta'lim muassasasida do'stlardan uzilib qolgan, o'ziga yaqin muomala muhitini topa olmagan bolalar bilan ham alohida ish olib boriladi. Ularga o'zining ijobiy va salbiy jihatlari haqida mulohaza qildirish, yomon odatlarini yaxshilariga almashtirish bo'yicha tavsiyalar berish, buni inter-

faol shaklida amalga oshirish orqali ijobiy o'zgarishlarga erishilmoqda.

– Psixolog, eng avvalo, tinglay olishi, tushuna bilishi kerak, – deydi Halima Bekmurodova. – O'quvchilar bilan suhbat chog'ida ko'pincha ularga bu dunyoda yomon odamlar emas, faqat noto'g'ri tushunchalar bilan yashaydiganlar borligini, buni o'zgartirish mumkinligi haqidagi g'oyani uqtirishga harakat qilaman.

Lavhamiz qahramoni akademik litseyda psixologik xizmatni yanada rivojlantirish niyatida. Jumladan, psixologik treninglar uchun maxsus xona tashkil etish, psixologiya fanini darslik sifatida kiritish bo'yicha vazirlikka taklif bilan chiqish kabi rejalarni amalga oshirish ishtiyoqida. Ayni chog'da, u «IIV akademik litseyi o'quvchilarida kasbiy motivatsiyani shakllantirishning ijtimoiy-psixologik omillari» mavzusida ilmiy ish olib boryapti. Yaqinda ichki ishlar organlari xodimlari uchun mo'ljallangan «Kasbiy motivatsiya – xizmat quroli» kitobi nashrdan chiqqani esa uning professional izlanishlaridagi muhim natijalardan biri bo'ldi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



Ветераны — наша гордость

ЧЕТВЕРТЬ ВЕКА В СТРОЮ

Когда говорят «Жумабой ака», имеют в виду председателя Совета ветеранов Гурленского РОВД капитана в отставке Жумабая Урозалиева. За его плечами — 25 лет службы в органах внутренних дел и множество раскрытых преступлений. Один из ярких эпизодов тех лет он вспоминает так.



В 90-е годы, работая участковым инспектором Янгибазарского РОВД, он узнал от наставника, капитана Бозорбая Юлдашева, о задержанном молодом человеке, который пытался продать бычка по заниженной цене. Тогда Урозалиев переписал данные подозреваемого, и эти сведения вскоре пригодились. Через месяц жители колхоза Маданият сообщили о краже скота. Проверив старые записи, сотрудники вышли на след преступной группы, много лет занимавшейся хищениями крупного рогатого скота.

Во время обыска у одного из подозреваемых, Ш. Курбонова, сначала ничего не нашли. Но повторная проверка помогла обнаружить целый тайник — часы, женскую одежду и оборудование парикмахерской. Позже выяснилось, что преступники помимо кражи скота ограбили бытовой комбинат и часовую мастерскую.

Другой случай также был раскрыт благода-

ря наблюдательности. Остановив водителя мотоцикла «Восход» без документов, сотрудники изъяли транспорт. Год спустя, заметив, что никто не заявил о пропаже,

Урозалиев инициировал проверку. В доме пассажира мотоцикла обнаружили множество разобранных деталей — подросток признался в серии угонов.

Такие эпизоды — лишь малая часть его службы. Начав службу в 1981 году в столичном районном ОВД, он окончил Ташкентскую средне-специальную школу милиции и затем

служил в Янгибазарском и Гурленском районах Хорезмской области. Он добросовестно обеспечивал общественный порядок, предупреждал преступность и снискал уважение коллег и жителей.

Сегодня Жумабой Урозалиев, возглавляя Совет ветеранов, активно участвует в воспитании молодых сотрудников, проводит встречи в школах и махаллях, делится профессиональным опытом. Его вклад неоднократно отмечен грамотами, благодарственными письмами и нагрудным знаком «Ветеран МВД Узбекистана».

Жумабой ака вместе с супругой Гулсарой Гойиповой воспитали пятерых детей и более десяти внуков.

**Нилуфар
ЖАББОРОВА,**
соб. корр.

Хорезмская область.

■ Навоийская область

ВАЖНЕЙ ВСЕГО ПОГОДА В ДОМЕ

Семья — священная крепость. В жизни, естественно, встречаются разногласия, временные недопонимания или трудности. В такие моменты особенно важно сохранить семейный мир и укрепить семью.

Именно с этой целью в Навоийской области были проведены масштабные профилактические мероприятия «Безопасная семья». Они направлены на урегулирование семейных конфликтов, профилактику случаев насилия, защиту интересов женщин и детей.

В ходе мероприятий рабочие группы выявляли проблемы жителей махаллей. Для 387 семей, где конфликты носили систематический характер, оформлены охранные ордера.

Мафтуна Камолова (здесь и далее имена и фамилии изменены) подвергалась придиркам и давлению со стороны мужа. Домашние ссоры негативно отражались и на психике детей. После получения Мафтуной охранных ордера ситуация резко изменилась. С ее супругом провели профилактическую беседу, семье назначили психолога. Проблемы в отношениях между мужем и женой были обсуждены с участием активистов махалли.

С целью профилактики семейных конфликтов распространялись информационные буклеты,



давались правовые разъяснения. В ходе мероприятия 21 человеку, состоявшему на профилактическом учете органов внутренних дел, была оказана материальная помощь. Некоторым отремонтировали дома, другим помогли решить бытовые проблемы.

Трое граждан, оставшихся без работы и дохода, были трудоустроены. Например, жительница Хатырчинского района Гульнора Собирова два года была безра-

ботной. Муж зарабатывал лишь сезонно. В ходе мероприятия Гульнора получила работу — стала помощницей у предпринимательши. Рассматриваются меры и по трудоустройству ее супруга.

Во время мероприятия 50 женщин, подвергшихся давлению и насилию, были помещены в специальные реабилитационные центры. Кроме того, 13 из них направлены в «Центр реабилитации и адаптации женщин».

Одна из тех, кого поддержали — Юлдуз Мухаммадиева, которая много лет жила под давлением. Психически истощенная, она продолжала жить с мужчиной только ради детей. Теперь проблемы начали решаться, а права — защищаться. Прежде всего была оказана психологическая помощь. До полного решения жилищного вопроса она будет находиться в центре реабилитации и адаптации женщин.

В сотрудничестве с комиссиями «Укрепление семейных ценностей», действующими в махаллях, изучены конфликтные ситуации в 240 семьях. Из них 138 семей удалось примирить в результате бесед и разъяснительной работы. Самое радостное — предотвращен развод в 102 семьях.

Благодаря подобным мероприятиям количество разводов сокращается, случаи насилия выявляются на ранней стадии, а женщины начинают осознавать свои права. По мнению специалистов, такая работа не должна быть разовой, она требует постоянной ответственности и тесного взаимодействия.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.





ZIYRAKLIK VA TEZKORLIK SAMARASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda.)

PPX batalyoni 2-otryadi komandiri, mayor Erkin Shodmonov zudlik bilan hududga safdorlar Quvonchbek Bobonorov va Alijon Norbo'tayevni yubordi. Xodimlar shubhali shaxsni cho'chitib yubormaslik uchun mashinada uning yonidan zuv etib o'tib ketishdi. Bu holat esa uni biroz xotirjam qildi.

– Mashinamizni pana joyda qoldirib uning harakatini kuzatdik. Chunki bunday paytda asosiy e'tibor fuqarolar xavfsizligini ta'minlashga qaratilishi kerak. Mabodo uning sumkasida sovuq qurol bo'lsa, qo'lga olish jayronida begunoh kishilar jabrlanishi mumkin. Shu bois biz uni fuqarolar kamroq joyga chiqqunga qadar yashirincha kuzatib turdik. Albatta, u bizni ko'rishi bilanoq qochishga urindi. Lekin tezkor harakat qilib qo'lga oldik, – deydi safdor Quvonchbek Bobonorov. – Mashinaga o'tqizganimizda u «Yigitlar kelishaylik» deb, bizga pul taklif qildi. Bu uning qidiruvdagi shaxs ekanligini yana bir karra tasdiqladi.

Darhaqiqat, gumonlanuvchi viloyat IIB Tezkor boshqaruv markaziga olib borilib, u qidiruvda bo'lgan fuqaro M.X. ekanligi aniqlandi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

«MISKIN» BEKATI POSBONLARI

Bugungi kunda transport, jumladan, temiryo'llar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallaydi. Shu bois mazkur soha faoliyatini yanada takomillashtirish, unda xavfsizlikni ta'minlash zamon talabi hisoblanadi.



Qoraqalpog'iston Respublikasi Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi «Miskin» bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasining xizmat hududi Xorazm, Buxoro viloyatlaridan o'tuvchi Miskin – Buxoro, Miskin – Istiqlol, Miskin – Nukus temiryo'l yo'nalishlaridagi 172 kilometr masofani tashkil qiladi. Mazkur hududda 3 ta temiryo'l vokzali, 6 ta bekat, 1 ta razyezd mavjud. Bundan tashqari, 19 ta avtomobil va temir yo'l kesishmasi joylashgan.

– Joriy yilning o'tgan 11 oyi davomida bo'linma

xodimlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida xizmat hududimizda birorta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Shuningdek, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan 424 nafar fuqaroga nisbatan tegishli choralar qo'llanilishi ta'minlandi, – deydi «Miskin» bekat bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Baynazar Allamjarov.

Joriy yilning noyabr oyida To'rtko'l tumanida yashovchi M.M. temiryo'l bekatining yuk tushirish va ortish maydonchasi-da ko'mir ta'minoti korxonasiga

tegishli bo'lgan jami 520 kg ko'mirni o'zining boshqaruvidagi avtoullovga yuklab, hech qanday hujjatsiz olib chiqib ketayotgan vaqtida ushlendi. Ushbu holat yuzasidan o'rnatilgan tartibda tegishli hujjatlar rasmiylashtirildi.

Shuningdek, bo'linmaning xizmat hududida 12 ta mahalla fuqarolar yig'ini, 8 ta maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi, 18 ta boshqa tashkilot va idoralar joylashgan. Asosiy e'tibor, aholi xususan, o'quvchi yoshlar orasida hamda ushbu tashkilot va muassasalarda tezkor profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etishga qaratilgan.

Afsuski, shunga qaramasdan, temiryo'llarda turli ko'ngilsiz holatlar uchraydi. Shu bois bo'linma xodimlari tomonidan «Huquqbuzarliklar profilaktikasi kuni», «Temiryo'llarda xavfsiz kun», «Yoshlar orasida psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar tarqalishiga qarshi kurashish», «Qoradori-2025», «Korrupsiyaga qarshi kurashish» tadbirlari o'tkazib kelinyapti. Shuningdek, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, poyezd vagonlariga va temir yo'l inshootlariga shikast yetkazmaslik, voyaga yetmaganlarni e'tiborsiz qoldirmaslik kabi ko'plab yo'nalishlar bo'yicha profilaktik-tushuntirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.

Qoraqalpog'iston Respublikasi.

SAYYOHLAR SONI ORTMOQDA

Tahlillarga ko'ra, joriy yilning shu davriga qadar

5 million 434 ming
nafarga yaqin
turistlar viloyatimizga tashrif
buyurdi.

Buxoro:
turizm

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan

1,6 baravarga oshdi.
Shundan **1 million 783 ming** nafardan ortig'i xorijiy sayyohlardir.

Hududdagi mehmonxonalarning bandlik darajasi ham **84** foizdan **92** foizgacha ko'tarildi. Shu bilan birga, sayyohlarning viloyatimizda qolish muddati o'rtacha **1,5** kunga uzaygani kuzatilmoqda. Mazkur davr mobaynida xorijiy turistlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ham o'tgan yilga nisbatan **1,6** baravarga oshdi.

Bundan tashqari, o'tgan oylar davomida **598** kishidan iborat **20 ta** xorijiy davlatdan hamda 3 ta xalqaro tashkilotdan **36 ta** delegatsiya kutib olindi. Tashrif obyektlarida xizmat olib borayotgan boshqarma xodimlariga turli masalalarda yordam so'rab **10457** nafar xorijiy hamda **10988** nafar mahalliy turistlar murojaat qilishgan va ularning barchasi ijobiy hal etilgan.

Ruslan AKRAMOV,
kapitan.



JINOYATCHILIKDAN XOLI HUDUD

OSOYISHTALIK ORTIDA
KIM TURIBDI?

Namangan viloyati Mingbuloq tumanidagi «Qirqchek» MFYda ikki yildirki, jinoyatchilik sodir etilmagani bois viloyatdagi jinoyatchilikdan xoli hudud, deya tan olingan.

3200 nafar aholi istiqomat qilayotgan mahallada jamoat tartibini buzganligi, spirtli ichimliklar iste'mol qilish kabi huquqbuzarlik holatlari ham qayd etildi. Huquqbuzarlarning barchasi qat'iy nazoratga olingan bo'lib, ular bilan yil davomida tarbiyaviy-nazorat ishlari olib borildi. Bu esa jinoyat yo'lga kirib qolmasliklariga sabab bo'ladi.

Katta leytenant Miraziz Rahimov 2021-yildan buyon ushbu mahallada xizmat olib boradi. U yangi ish boshlagan paytlarida hududdagi bitta oshxonada 3 ta nazorat kamerasi bor edi, xolos. Eng avvalo, ishini shundan boshladi. Mahalla aholisi bilan kelishgan holda 7 ta bino va mahallaga kirish joylarini jami 38 ta nazorat kameralari bilan ta'minlashga erishdi. Bunda ichki ko'chalarni ham istalgan paytda kuzatish imkoni yaratildi. Qolaversa, har bir ko'chaning o'z ko'chaboshisi bor. Ular mahallada o'z obro'-e'tiboriga, hurmatga loyiq insonlar orasidan tanlab olingan.

– «Qirqchek» MFYning eng osoyishta hudud sifatida tan olinishi bejiz emas, – deydi Mingbuloq tumani IIB JXX HPB boshlig'i, kapitan Javlonbek Nishonov. – Buning zahirida profilaktika inspektorining qat'iyatli va fidokor-

rona mehnati bor. Miraziz tezkor vaziyatda ham, oddiy kundalik ish jarayonida ham aholining ishonchini birinchi o'ringa qo'yadi. Uning jamoat bilan doimiy muloqoti, hududni har tomonlama bilishi va har bir oilani e'tibor bilan kuzatib borishi jinoyatning oldidagi eng kuchli to'siqdir. Biz uning ish uslubini tumandagi boshqa inspektorlarga ham o'rnak sifatida ko'rsatamiz.

– Aholi biror kor-hol bo'lsa, eng avvalo, mening huzurimga oshiqadi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Uning muammosi boshqa sohaga taalluqli bo'lsa ham, imkon qadar amaliy yordam ko'rsatishga harakat qilaman. Shu bois mahalladoshlar hurmat qilishadi, menga ishonishadi. Jinoyat sodir etishdan o'zlarini tiyishadi. Muammolari bo'lsa, u gazak olib ketmasidan, birgalikda hal qilamiz.

Demak, profilaktika inspektori bilan xalq o'rtasidagi masofani yaqinlashtirish kerak. Ichki ishlar organlari xodimi aynan mana shu aholining bir qismi bo'lishi shart. Shundagina hududda jinoyatchilik sodir etilmaydi.

Jahongir TO'XTASINOV,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.



QO'SHQANOTLAR

MAQSADLARI MUSHTARAK

Kimdir baxtni san'atda topsa, kimdir ilmda, yana kimdir el-yurtga xizmatda topadi. Yelkadosh bo'lib xizmat qilayotgan kapitan Mohigul Xudoyberdiyeva va katta leytenant Ulug'bek Turdiboyev shular qatorida.



Mohigul bolaligidan ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilardi. Maqsadiga yetish uchun 2018-yilda IIV Akademiyasini tamomladi.

– Sohaga mehrimni oshirgani va meni har doim qo'llab-quvvatlagani uchun Abdurahim bobomdan behad minnatdorman, – deydi Samarqand shahar IIOFMB 4-sonli IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori, kapitan Mohigul Xudoyberdiyeva.

Mohigul Xudoyberdiyeva sohasiga aloqador yangiliklardan xabardor bo'lib boradi. U har bir daqiqadan unumli foydalanishga harakat qiladi. Huzuriga murojaat bilan kelgan xotin-qizlarning muammolarini hal etishga, og'irini yengil qilishga ko'maklashadi.

– Ikkalamizning ham maqsadimiz mushtarak, ya'ni el-yurt osoyishtaligini ta'minlash. Bitta tizimda xizmat qilganimiz uchun bir-birimizning mashaqqatlarimizni yaxshi tushunamiz, – deydi Samarqand shahar IIOFMB 5-sonli IIB HPB profilaktika inspektori, katta leytenant Ulug'bek Turdiboyev.

Hayotda hamkor, hamqadam, hamnafas qo'shqanotlar xizmatidan qaytgach, oilaviy masalalardan tashqari, beixtiyor xizmat

jarayonlari, kimlarga yordam bergani, hal etgan muammolari, ertangi rejalari haqida ham suhbatlashishadi. O'zaro mehr-muhabbat, hurmat ular hayotining ustunlaridir. Ota-onalarining duosidan kuch olayotgan katta leytenant U.Turdiboyev va kapitan M.Xudoyberdiyeva maqsadlari yo'lida sobitqadam, yurt osoyishtaligiga kamarbasta.

– Farzandlar kamoli uchun ota-ona doimo mas'ul. Qizingiz kelin bo'lib tushgan xonadonida tinib-tinchib, baxtli yashasa onaning ko'ngli xotirjam bo'lar ekan. Shukurki, men ana shunday baxtli ayolman. Qizim Mohigul kuyovim bilan birgalikda el-yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilishyapti. Bundan faxrlanaman, – deydi biz bilan suhbatda Mohira Xudoyqulova.

Har qanday ayolning turmush tarzi, kun tartibi rejali bo'ladi. Kapitan M.Xudoyberdiyeva ro'zg'or yumushlarini bajarishga ham, muammoli oilalar bilan ishlashga ham, o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etishga ham ulguradi. Turmush o'rtog'i bilan ikkisi farzandi Elnurbekni komil inson qilib ulg'aytirishga intilishyapti.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.



YUKSAK MUKOFOT SOHIBLARI

ISHONCH ORTIDAGI MAS'ULIYAT

Qishloq xo'jaligi – aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy manba. Ayni chog'da, u keng iste'mol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bir qancha sanoat tarmoqlari uchun xomashyo yetkazib beradi. Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasi esa Markaziy Osiyoda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda: yalpi mahsulot hajmi Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lib, bu uning ko'lami va strategik ahamiyatini aks ettiradi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir kishiga to'g'ri keladigan qo'shimcha qiymat dunyodagi o'rtacha darajadan 4,4 baravar yuqori bo'lib, bu agrar sektorning samaradorligi ortib borayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimizning 2020-yil 18-martdagi «Agrar va oziq-ovqat sohalari boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga ko'ra, ekin maydonlari o'zboshimchalik bilan egallanishining oldini olish, qishloq xo'jaligi texnikalari holatini nazorat qilish, mineral o'g'itlarning maqsadli ishlatilishini, paxta va g'alla hosilini yig'ib olishda jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash Ichki ishlar vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Shu o'rinda, joriy yilda qarorda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan vazirlik hamda uning quyi tuzilmalari tomonidan amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlardan ayrimlarini alohida qayd etish joiz. Xususan, g'alla mavsumida yetishtirilgan boshqoli don hosilini nes-nobud qilmasdan o'rib-yig'ib olish maqsadida zarur amaliy yordam ko'rsatildi. Natijada respublikamizda 8,4 million



tonnalik xirmon yaratilib, mavsumda talon-torojlikka yo'l qo'yilmadi.

E'tiborga molik yana bir jihat shuki, tegishli xizmatlar bilan hamkorlikda noqonuniy yer sotish bilan bog'liq 1679 ta holat aniqlanib, 1310 nafar shaxs javobgarlikka tortildi. Buning natijasida minglab gektar yer maydonlarining noqonuniy sotilishiga barham berildi.

Yoki joriy mavsumda respublika bo'yicha qariyb 4 million tonna paxta xomashyosi terib olingani ham diqqatga sazovordir.

Umuman olganda, hududiy ichki ishlar organlarining jinoyat qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi, jamoat tartibini saqlash va yo'l harakati xavfsizligi xizmatlari xodimlarining paxta va g'alla

parvarishi, o'rim-yig'imi davrida jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda talon-torojlikning oldini olishga qaratilgan fidokorona faoliyatini alohida e'tirof etish lozim.

Shubhasiz, bunday ijobiy natijalarning qo'lga kiritilishida vazirlikning qishloq xo'jaligi sohasidagi vazifalari bajarilishiga mas'ul bo'lgan polkovnik Saidkarim Nishanbayevning ham munosib hissasi bor.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kuni kecha imzolangan «Qishloq xo'jaligi xodimlari kuni munosabati bilan soha rivojiga munosib hissa qo'shgan yurtdoshlarimizdan bir guruhini mukofotlash to'g'risida»gi farmoniga binoan, Ichki ishlar vaziri o'rinbosari, polkovnik Saidkarim Nishanbayev davlatimizning yuksak mukofoti – «Mehnat shuhrati» ordeni bilan taqdirlandi.

– Yurtboshimiz tomonidan bildirilgan ishonch zimmamizga yanada katta mas'uliyat yuklaydi, – deydi lavhamiz qahramoni. – Oldimizda turgan vazifalarni to'laqonli bajarish, agrar va oziq-ovqat sohalari rivojlantirish yo'lida bor kuch va salohiyatimizni ishga solamiz. Qishloq xo'jaligi kampaniyalari davrida jamoat tartibini saqlash, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash hamda huquqbuzarlik holatlarining oldini olish uchun barcha imkoniyatlarimizni to'liq safarbar qilamiz. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini, to'kin-sochinlik va farovonlikni ta'minlash bu tinchlikni ta'minlash demakdir.

Bu yuksak e'tirof nafaqat uning, balki vazirlik tizimining qishloq xo'jaligi sohasi rivojiga qo'shgan hissasiga munosib baho bo'ladi.

Abror POYONOV,
maxsus muxbirimiz.

O'ZBEKISTONDA
«CHAMPS» TASHABBUSI

Toshkent shahrida BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (NJB) «CHAMPS» tashabbusining O'zbekistonda rasmiy ishga tushirilishiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

«CHAMPS» tashabbusining asosiy maqsadlari – davlat va no-davlat tashkilotlarni bolalar orasida zararli xulq-atvor shakllanishining oldini olishda, erta profilaktika choralarini samaradorligini oshirishda, hayotiy va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda yagona va integratsiyalashgan profilaktika tizimi doirasida birlashtirishdir. Ushbu tashabbusda xavf guruhi ro'yxatida turuvchi bolalarga alohida e'tibor qaratiladi.

O'zbekistonda «CHAMPS» tashabbusining birinchi pilot hududi sifatida poytaxtimizning Sergeli tumani belgilandi. Ushbu tuman-da BMT NJB mahalliy hamkorlar bilan birgalikda bolalarni qo'llab-quvvatlovchi mavjud profilaktika infratuzilmalarini baholash, tashabbusning samaradorligini oshirish va bolalarning sog'lom rivojlanishida asosiy parametrlarni ishlab chiqish choralari o'rganmoqda.

Tadbir yakunida tomonlar O'zbekistonda «CHAMPS» tashabbusini amaliyotga joriy etishga oid rasmiy hujjatlarni imzolashdi.

O'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

«XAVFSIZ VA SOG'LOM YURT»

«ZAHRI QOTIL» QUTQUSI

Shu aziz Vatanda yashayotgan har bir fuqaro, har bir oila, butun jamoatchilik giyohvandlik balosiga qarshi kurashning faol ishtirokchisi bo'lishi lozim. Ayniqsa, yoshlar bilan targ'ibot ishlarini kuchaytirish, profilaktik choralarni kengaytirish, aholini bunday xatarlardan himoya qilishda yurtimiz bo'ylab o'tkazilayotgan «Xavfsiz va sog'lom yurt» keng qamrovli tadbirlari alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu tadbir doirasida joriy yilning noyabr oyida IIV, poytaxt IIBB va DXX Toshkent shahar boshqarmasi hamkorligida 25 kilogramdan ortiq giyohvandlik vositalari, jumladan, 18 kilogramm 692 gramm sintetik va 4749 dona psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga chek qo'yildi.

Ichki ishlar organlari hamda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi

idora vakillari hamkorligida o'tkazilayotgan mazkur tadbir jinoyatchilik va «zahri qotil» qutqusiga qarshi qat'iy va birgalikdagi harakatning yaqqol ifodasidir. Poytaxtimizda giyohvandlik vositalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish borasidagi tezkor tadbirlar davom etmoqda.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



В центре внимания — профилактика

После окончания факультета французской филологии Самаркандского государственного университета в 2016 году она начала преподавать в одной из школ родного района. Решение изменить профессиональный путь пришло спустя четыре года.

— В какой-то момент стремление помогать взяло вверх, — говорит старший лейтенант. — Теперь, находясь на передовой борьбы за права женщин, каждый день стараюсь поддержать тех, кто оказался в трудной ситуации.


На Фариду возложена большая ответственность — обеспечение защиты прав и интересов 26 тысяч женщин, проживающих в 23 махаллах города. Эта деятельность требует не только знания законов, но и глубокого понимания жизненных обстоятельств, с которыми сталкиваются женщины.

Рабочий день инспектора начинается с непрерывного потока заявлений, консультаций и неотложных обращений. Она не ограничивается регистрацией фактов, а стремится вникнуть в каждую ситуацию, оказать поддержку и предложить реальный путь решения проблемы.

— Важно, чтобы женщина почувствовала, что она не одна. Что ее слушают и слышат, — отмечает старший лейтенант. — Чаще всего обращаются по вопросам алимен-

ЛОМАЯ БАРЬЕРЫ

В мире, где стереотипы все еще сильны, а предрассудки порой кажутся непреодолимыми, женщины в погонах продолжают ломать барьеры и ежедневно доказывают свою компетентность. Одна из таких героинь — старший лейтенант Фарид Мардиева, чьи силы направлены на защиту прав женщин и укрепление их безопасности.



тов, бытовых споров, конфликтов со свекровью или другими членами семьи. В таких случаях я провожу консультации, а при наличии притеснений выдается охранный ордер. С начала года его получили 68 женщин.

Работа старшего лейтенанта Мардиевой не ограничивается защитой прав. Совместно с членами «махаллинской семерки» она проводит профилактические мероприятия, направленные на раннее предупреждение

правонарушений среди женщин и выявление их социальных проблем.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

Самаркандская область.

Республика Каракалпакстан

В ПЛАНАХ — ВОЙТИ В «ЗЕЛЕНУЮ» КАТЕГОРИЮ

Тахтакупырский район — один из самых отдаленных в Каракалпакстане. В сельском сходе граждан имени Героя Узбекистана Агытая Адилова эти обязанности возложены на инспектора профилактики ОПП майора Азатбая Жумабаева. В начале года территория находилась в «красной» категории, однако благодаря целенаправленной работе инспектора ее удалось перевести в «желтую».

— Здесь проживают более 2 800 человек разных национальностей. Насчитывается 587 домохозяйств, функционируют школа, детский сад, почтовое отделение, летний клуб, объекты бытового обслуживания и торговли, — рассказывает председатель сельского схода граждан Жанабай Ходжагулов. — Инспектор профилактики майор Жумабаев обладает большим опытом, к тому же он родился и вырос в этом районе, хорошо знает население. Поэтому работает очень эффективно.

Азатбай Жумабаев родом из Тахтакупырского района. Его отец, Полат Жумабаев, руководил районным отделом пожарной безопасности. Службу Азатбай начал в 2012 году в должности младшего инспектора-кинолога. С 2020



года — в сфере профилактики правонарушений.

Особое внимание инспектор уделил более чем 20 лицам, состоящим на

профилактическом учете. Он изучал их жизненную ситуацию и находил практические способы помощи. В результате удалось

трудоустроить часть граждан в фермерские хозяйства, двоим была оказана помощь в приобретении мототранспорта для само-

занятости. За прошедший период в отношении 19 лиц, допустивших правонарушения, применены административные меры, проведены профилактические беседы с их родственниками.

— В ходе подворового изучения подготовил 103 заключения и направил их в «махаллинскую семерку». Большинство из них решены положительно. В частности, 12 молодым людям выделено по одному гектару земли, двум другим приобретено оборудование, необходимое для самозанятости, — отмечает майор А. Жумабаев. — Совместно с председателем и активом схода организуем открытые встречи с гражданами, проводим широкую разъяснительную работу по предотвращению правонарушений и преступности. К концу года намерены вывести территорию в «зеленую» категорию.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.



AN'ANA DAVOM ETADI

OTANING QANOTLARI

Boyovut tumanidagi «Usmonobod» mahallasida istiqomat qiladigan Hojiboy Yakubovning oilasini mahalladoshlari ichki ishlar organlari xodimlari oilasi sifatida hurmat qilishadi. Boisi, uning o'zi tizimda ko'p yillar ishlab pensiyaga chiqqan bo'lsa, ikki o'g'li hozirda el-yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilmoqda.

Hojiboy aka 1994-yil 13-tergov hibsxonasida nazoratchi-inspektor lavozimida xizmat faoliyatini boshlaydi. Keyinchalik Boyovut tumani IIB Qo'riqlash bo'limi inspektori yordamchisi lavozimida xizmat qiladi.

2005-yilda katta serjant Hojiboy Yakubov hurmat bilan nafaqaga kuzatildi.

Ota izidan ketgan safdor Jumaboy Yakubov Sirdaryo viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta'minlash guruhi safdor xodimi. U Sirdaryo va Toshkent viloyatlari oralig'idagi «Sayxun» postida xizmat qiladi. Uning fidoyiligi ortidan ko'plab sifat-siz go'sht mahsulotlari aholiga yetib

borishining oldi olingan.

Hojiboy aka-ning yana bir farzandi Inomjon Yoqubov viloyat IIB YHXB inspektori lavozimida xizmat olib boryapti. U yo'llarda qilingan har qanday xato og'ir oqibatlariga olib kelishini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham harakat tig'iz chorrahalar, muyulishlarda o'ta hushyorlik bilan xizmat olib boradi. Uning fidokorona xizmati vazirlik va boshqarma rahbariyati tomonidan ko'p bora e'tirof etilgan.



– O'g'illarim doim mendan maslahat so'rab turishadi, – deydi iste'fodagi katta serjant Hojiboy Yakubov. – Ikki o'g'lim mening ikki qanotim. Ular ishimni davom ettirayotganidan faxrlanaman. Nabiralarim ham an'anaga sodiq qolishsa, otalari izidan ketishsa ajabmas.

Xulosa qilib aytganda, el-yurt osoyishtaligiga hayotini bag'ishlayotgan ushbu oila vakillariga barcha havas qiladi. Ularning halol, o'z kasbiga sadoqatli xizmatidan o'rnak olishga intilishadi.

Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.

Sirdaryo viloyati.

XIZMATDAN TASHQARIDA

SAN'ATNING SEHRI BO'LAK

Normamat ota Buxoroning chekka tumanlaridan biri Olotda bir umr haydovchilik orqasidan ro'zg'or tebratgan inson. Normangli aya bilan ahil-inoqlikda oila oshyonida ikki o'g'il, ikki qizni voyaga yetkazib, jamiyatga qo'shishdi. Doim farzandlarining qiziqishlari, intilishlariga quloq tutgan bu mehribon otaning ko'ngli san'atga oshno edi. Shu sabab ikkinchi o'g'li, Yoqubjonga 7 yoshligida doira sovg'a qiladi. Shu tariqa, farzandining murg'ak qalbida san'at uchqunlarini alanglatadi.



– Otam olib bergan doirani bo'sh qoldim deguncha chalganlarim kechagidek esimda, – deydi IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7534-sonli harbiy qism Markaziy bazani qo'riqlash bo'yicha batalyoni 1-o'qchi guruh komandiri, leytenant Yoqubjon Diniyev. – Qiziqishim tufayli dastlab havaskorlar to'garagiga qatnaganman. Keyin musiqa maktabi, san'at kollejida o'qidim. O'zbekiston davlat konservatoriyasida milliy maqom yo'nali-shida ustozim O'zbekiston xalq hofizi Mahmudjon To-

jiboyev qo'llarida tahsil oldim. Va nihoyat poytaxtda san'atdagi mustaqil ijodimni boshladim. 2012-yilda esa Qorovul qo'shinlariga qarashli 7531-harbiy qismning namunali ko'rgazmali orkestrida III toifali artist sifatida ilk xizmatimni boshladim.

Lavhamiz qahramoni bugun sohada zimmasiga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishi bilan birga o'ziga xos ijrolari bilan xizmatdoshlari ishonchini, hurmatini qozongan. Hamkasblari uni «o'zimizning hofiz», deyishadi. Harbiy qismda

o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlarga Yoqubjonning jonli ijrodagi qo'shiqlari o'zga-cha fayz kiritishi ham rost.

Yuragi uyg'oq inson borki, yangilikka intilib, izlanishdan to'xtamaydi. Lavhamiz qahramoni ham kasbiga qo'ygan mehri, qiziqishi ortidan IIV Akademiyasida sirtidan o'qib, «yurist» malakasini beruvchi diplomni qo'lga kiritdi, ofitser bo'ldi. Xizmatdan bo'sh vaqtlarida doim mualliflik qo'shiqlari ustida ishlaydi. Shuningdek, ko'pkurash sport turi bilan muntazam

shug'ullanadi. Bu mehnatlari samarasi o'laroq, 2017-yilda «O'zbekiston Vatanim manim» qo'shiqlar ko'rik-tanlovining respublika bosqichida ikkinchi o'rinni egalladi. 2018-yilda esa Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari o'rtasida o'tkazilgan ko'pkurash musobaqasining yakuniy bosqichida faxrli ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

– Tor, tanbur, doira chalaman, – deydi Yoqubjon Diniyev. – Yangi qo'shiqlar ustida ishlayman. Yaqinda «Vatan» qo'shig'ini kuyladim. Musiqasini ustozim Ashula va raqs ansambli oliy toifali artisti Zokir To'ychiyev bastalagan. Qo'shiq matni O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov qalamiga mansub. Shunday kezlarda xizmatda ham, ijodda ham o'z yo'limga ega ekanligimdan mamnun bo'laman.

Umr yo'llariga mehr qo'ygan kasbi, ijrolari mazmun bag'ishlab turgan qahramonimiz oilasida ham mehribon ota sifatida o'z o'rniga ega. Pedagog rafiqasi Dilnora bilan bir-biridan shirin farzandlari Rahmonali va Iymonaxonni ulg'aytirishmoqda. Ezgu maqsad, yorug' niyatlar ularning baxtli hayotida doim mayoqdir.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

TILIMIZGA KIRIB
KELGAN YANGI
ATAMALAR

Ambassador – norasmiy elchi. Bu brendni ifodalovchi shaxs, lekin kompaniyaning rasmiy xodimi emas. Brend qadriyatlarini yetkazadi, ular orqali odamlar mahsulot yoki xizmatni aniqlaydi.

Daunshifting – inson o'z mas'uliyatini va stressini kamaytirish uchun kamroq mas'uliyatli ish yoki kamroq kuch va vaqt talab qiladigan turmush tarzini tanlash.

Dedlayn – vazifa yoki loyihani bajarish uchun oxirgi muddat.

Karshering – avtomobillarni qulay sharoitlarda, arzon narxda qisqa muddatga, bir necha daqiqadan bir necha soatgacha ijaraga olish.

Kollaboratsiya – umumiy maqsadga erishish uchun ishtirokchilarning g'oya va imkoniyatlarining birlashishi, hamkorlik.

Kraudsorsing – internetdagi ko'plab odamlar muammoni hal qilish yoki ishni bajarish uchun birgalikda ishlaydigan jarayon, ko'pincha onlayn platformadan foydalanadi.

Frilans – odamning doimiy ish joyiga bog'lanmasdan mustaqil ravishda bajaradigan ishidir. Frilanser buyurtmalarni mustaqil ravishda qidiradi va ularni bajaradi, ko'pincha Internetdan foydalanadi.



STRESSNI YENGISH VA XIZMAT JARAYONIDA RUHIY BARQARORLIK

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ustuvor maqsadi, avvalo, inson omilini har qachongidan ham yuqori darajaga ko'tarish, ma'naviy barkamolligini ta'minlash, yuksak taraqqiyotga erishish orqali barcha sohalarda jahon hamjamiyatida yetakchi o'rinni egallashdan iboratdir. Shunday qilib, yangi davr har bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini xolis baholashni, shuningdek, psixologik bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblarining ruhiy dunyosini bilishni taqozo etmoqda. Insonning qizg'in va o'zgarishlarga boy hayoti endilikda undan psixik hodisalar qonuniyatlarini bilish va shunga mos tarzda oqilona va omilkorona ish yuritish zarurligini talab qilmoqda.

Hayot juda murakkab bo'lib, quvonchli, saodatli onlar, g'am-tashvishli damlar inson zotini ne ko'ylarga solmaydi, deysiz. Zamonaviy shaharlar, mashaqqatli hayotiy vaziyatlar, oiladagi, ko'cha-ko'ydagi va ishxonadagi bir-biriga zid asabiy ruhiy muhitlar, charchoq, surunkali kasalliklar, yomon ekologik sharoitlar kabi bir qator omillar inson fe'l-atvorining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Olimlarning fikricha, odam o'z ruhiyatini ongli ravishda boshqara bilsa, bemaol qon bosimini, qand moddasi va gormonlar miqdorini idora etishi, yurak urishini tartibga solishi, og'riq va charchoqni bartaraf qilishi, noxush asabiy tangliklardan saqlanishi mumkin. Bugungi kunda insonlar orasida kun sari oshib borayotgan ma'naviy nogironlik ongning benazir imkoniyatlariga to'sqinlik qilmoqda. Oila va ishdagi kelishmovchiliklar, sog'liq muammolari, nizolar va asabbuzarlik, mehnat faoliyatimizdagi salbiy ko'rsatkichlarga stressning ta'siri haqida ko'p gapiramiz.

Stress – organizmning tashqi yoki ichki omillarga nisbatan psixofiziologik javob reaksiyasidir. Bu tushuncha ilk bor kanadalik fiziolog Gans Sele tomonidan 1936-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u stressni organizmning har qanday talab yoki tahdidga umumiy adaptatsion reaksiyasi sifatida ta'riflagan. Zamonaviy tadqiqotlar stressning psixologik, biologik va ijtimoiy jihatlarini chuqur o'rganib, uning inson salomatligi, xulq-atvori va mehnat samaradorligiga ta'sirini ko'rsatadi.

Stress turli mezonlar asosida tasniflanadi: vazifasiga ko'ra, haqiqiy sababga ko'ra, davomiyligiga ko'ra va ta'sir darajasiga ko'ra. Emotsional xususiyatga ko'ra, stress ikki asosiy turga ajratiladi: ijobiy stress va

salbiy stress. Ularning farqi fiziologik reaksiyalar, psixologik holat va natijaviy samaradorlikda namoyon bo'ladi.

Birinchisi, insonga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, uning ichki resurslarini faollashtiradigan va motivatsiyani oshiradigan stress turi. Bu stress organizmni kerakli darajada mobilizatsiya qiladi, ammo zo'riqtir-



maydi, hushyorlik va diqqat oshadi, motivatsiya kuchayadi, energiya va ijodkorlik faollashadi, qaror qabul qilish tezlashadi, ish qobiliyati baland bo'ladi. Fiziologik xususiyatlari, adrenalin va noradrenalin miqdori me'yoriy darajada ko'tariladi, bosh miya qon bilan yaxshi ta'minlanadi, organizmda «energiya balans» optimallasadi.

Salbiy stress esa organizmda fiziologik va psixologik resurslarni kamaytirib, xavotir va qo'rquv, diqqat va xotiraning susayishi, uyqusizlik va charchoq, emotsional notinchlik kabi belgilarda namoyon bo'ladi. Natijada kortizolning uzoq muddatli yuqori darajada saqlanishiga, immunitetning pasayishiga va yurak-qon tomir tizimida zo'riqishlarga sabab bo'ladi.

Har bir kasbda stress bo'lishi mumkin, lekin ba'zi kasblar yuqori stressli hisoblanadi. Uni kamaytirish uchun shaxsiy tayyorgarlik, psixologik usullar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Yuqori stressli kasblar shaxsdan yuqori emotsional, psixologik va jismoniy yukni hamda tezkor qaror qabul qilish va mas'uliyatni talab qiladi. Bunday kasblarda xodimlar doimiy ravishda favqulodda vaziyatlar, xavf va uzoq ish jadvali bilan yuzma-yuz keladi.

Huquqni muhofaza qilish va favqulodda xizmatlar, ichki ishlar organlari xodimlari, maxsus xizmatlar, harbiylar, tez yordam va favqulodda vaziyatlarni nazorat qiluvchi xodimlar kasbiy malaka bilan birga, stressga bardoshlilik, ruhiy barqarorlik va samarali stressni yengish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi kerak.

Ayniqsa, yosh xodimlar bu jarayonda ko'proq qiyinchiliklarga duch keladi. Ilmiy tadqiqotlar jamoaviy qo'llab-quvvatlashning xodimlarda stressni 40–70 foizgacha kamaytirishi va ruhiy barqarorlikni oshirishi mumkinligini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan jamoaviy qo'llab-quvvatlash ichki ishlar organlarida stressga qarshi eng kuchli, samarali va uzoq muddatli «qalqon» sifatida qaraladi. Jamoaviy stressni kamaytirishning asosiy prinsiplari hamkorlik va o'zaro yordam – xodimlar orasida ishonch muhitini shakllantirish. Muloqot va fikr almashish – ochiq suhbatlar orqali qiyin vaziyatlarni tahlil qilish. Qo'llab-quvvatlovchi muhit – emotsiyalarni erkin bayon qilish va psixologik stressni yumshatish. Amaliyot va tajriba almashuvi – favqulodda vaziyatlarda birgalikda harakat qilish. Shu bilan bir qatorda, stressni yengish va xizmat jarayonida ruhiy barqarorlikni saqlash – ichki ishlar organlari va boshqa yuqori stressli kasblarda xodimlarning psixologik va emotsional salomatligini saqlashda asosiy omil hisoblanadi. Bu mexanizmlar: stressga chidamlilikni oshiradi, xizmat samaradorligini yuksaltiradi, yosh xodimlarni tezroq moslashtiradi, jamoada ishonch va hamkorlik muhitini mustahkamlaydi.

Insonni stress tug'diradigan taranglik emas, hayotga va unda

vujudga keladigan vaziyatlarga tayyorlanmaganlik vayron qiladi.

Darhaqiqat, ruhiyatga salbiy ta'sir o'tkazuvchi voqea-hodisalardan hech kim sug'urtalanmagan. Shunday ekan, hayotda muammolar kamroq bo'lishini emas, tajriba ko'proq bo'lishini xohlang. Insonlardan muammallik qidirmang, ularni boricha qabul qiling. Muammoli vaziyatlarda ijobiylikni qidiring.

Mavluda ORZIYEVA,
Navoiy viloyati IIB MMI va KBTX
bosh psixologi,
kapitan.



Maqolani
qoraqalpog' tilida
ushbu QR-kod
orqali o'qishingiz
mumkin.

TOZA HAVO – HAYOT MANBAYI

Yer yuzida mavjud okeanlardan tashqari, yana bir okean bor. U shoʻr emas, chuchuk ham emas, qirgʻoqsiz va suvsiz. Bu okean HAVO deb ataladi.

Borliq tirik jonotlar uchun eng muhimi havodir. Suvsiz bir necha kun yashash mumkin. Ovqatsiz – bir necha hafta. Havosiz esa bir necha daqiqa... Agar inson nafas olish imkoniyatidan mahrum qilinsa, u oʻladi. Ammo inson va boshqa jonotlar nafas olish uchun sof va faqat toza havoga muhtoj. Havoda sayyoramizdagi hayotning asosiy manbayi boʻlib, sogʻlom hayotimiz koʻp jihatdan uning tozaligiga bogʻliq.

Bugun dunyo aholisining 90 foizdan ortigʻi havoning sifati tavsiya etilgan standartlardan ancha past boʻlgan hududlarda yashaydi. Havoning ifloslanishi bilan bogʻliq kasalliklarga chalinganlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Oltinugurt dioksidi, uglerod va azot oksidi hamda qattiq zarrachalar atrof-dagi havoni ifloslantiradi. Bu ifloslantiruvchi moddalarning bir qismi tabiiy ravishda Yer atmosferasida mavjud. Ularning tabiiy manbalariga chang boʻronlari, vulqonlar va oʻrmon yongʻinlari kiradi. Ammo odamlar ham bu ifloslantiruvchi moddalarni atmosferaga chiqarib yuborishga oʻz ulushlarini qoʻshishadi. Qazilma yoqilgʻilarni yoqish, kimyoviy oʻgʻitlardan foydalanish va transport vositalaridan chiqadigan tutunlar oʻzidan juda koʻp miqdorda ifloslantiruvchi moddalarni ajratadi.

Tirik organizmning har bir hujayrasiga toza kislorod kerak. Kislorodsiz miya hujayralari bir zumda nobud boʻladi, yurak toʻxtaydi, boshqa organlar parcha-

lanadi. Demak, hayotimiz nafas olish bilan bogʻliq. Inson va har qanday jonot yashash jarayonida kecha-yu kunduz nafas oladi. Organizmda kislorod zaxirasi yoʻq, shuning uchun u bilan organizm nafas olish organlari orqali uzluksiz taʼminlanib turishi kerak.

Havoda kislorod juda koʻp. Lekin ajablanarlisi shundaki, u kamaymaydi. Chunki yer yuzida yashil oʻrmonzorlar bor. Bu sayyoramiz uchun haqiqiy kislorod fabrikasidir. Oʻsimliklar nafas olishga yaroqsiz karbonat angidrid gazini kislorodga, shuningdek, quyoshning nuri suvni kislorodga aylantirib atmosferaga qaytaradi. Demak, Yerda hayotning borligi havo bilan bogʻliq.

Bir necha kun toza havoda boʻlganimizdan soʻng qanday oʻzgarib borayotganimizni, kuch-gʻayrat va ruhiy muvozanat tezda bizga qaytayotganini, yuzimizning rangi yaxshilanib, koʻzlarimizda



jonli jilo paydo boʻlayotganini payqaymiz. Bunday oʻzgarishlarni bizga kislorod beradi. Kislorod tanamizning har bir hujayrasiga kerak, chunki u tanamizda sodir boʻladigan barcha jarayonlar: energiya manbayi – moddalar almashinuvi, ozuqa elementlarini oʻzlashtirish, toksinlarni zararsizlantirish va chiqarib tashlash, miya, yurak, immunitet tizimlari va boshqalar uchun juda zarur. U bizga fikrlash, his qilish, harakat qilish imkonini beradi.

Havoning ifloslanishi global muammolardan biridir.

Atrof-muhit musaffoligini taʼminlashda atmosfera havosini muhofaza qilish har bir insonning muqaddas burchi boʻlmogʻi kerak. Shu bois atrofda ifloslantiruvchi moddalar chiqishining oldini olish, uni keskin kamaytirish borasida ham aniq ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Iqlim oʻzgarishi va atrof-muhitni himoya qilish boʻyicha davlatlar turli xalqaro konvensiyalarni qabul qilishgan.

Bu dolzarb masala bizda ham oʻz yechimini topmoqda. 2025-yilning «Atrof-muhitni

asrash va «yashil» iqtisodiyot yili» deb eʼlon qilinishi buning isbotidir. «Yashil makon» va «Toza havo» kabi keng koʻlamli tadbirlar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini joriy etish, suv tizimlarini modernizatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini ekologik loyihalarga jalb etishga qaratilgan.

Davlatimiz rahbarining «Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash boʻyicha kechiktirib boʻlmaydigan chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, maxsus komissiya tuzildi.

Bugungi kunda sayyoramizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish boʻyicha hali qilinadigan ishlar koʻp. Havoning ifloslanishi na faqat inson salomatligiga, balki suv, tuproq, oʻsimlik, hayvonlarga ham zarar yetkazadi. Shuning uchun havo musaffo va toza boʻlishi kerakligini tushunish hamda iqlim oʻzgarishining oldini olishda oʻz hissasini qoʻshish bugungi avlod oldida turgan asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Gʻayratulla SHUKUROV,
oʻz muxbirimiz.



MOLXONAGA YASHIRILGAN OGʻU

«Giyohvandlik va narkojinoyatlarning barvaqt oldini olish hamda ularga qarshi kurashish boʻyicha 2025–2026-yillarga moʻljallangan milliy dastur»da belgilangan vazifalar hamda «Xavfsiz va sogʻlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirlari doirasida Fargʻona viloyatining Oʻzbekiston tumanida ham bir qator holatlar aniqlandi.

Masalan, olingan tezkor maʼlumotlar asosida tumanning «Nursux» mahallasida yashovchi A.O. ismli fuqaroning xonadoni xolislar ishtirokida koʻzdan kechirilganida, molxonadagi somonlar orasida

shisha idish hamda sellofan paketlarga oʻralgan, quritilgan holdagi giyohvandlik vositalari aniqlanib, xolislar ishtirokida daliliy ashyo sifatida olindi. Hozirda mazkur holat yuzasidan tergovga qadar

tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

Shuningdek, yana bir holatda «zahri qotil» sirtmogʻiga ilingan shaxs koʻchada qoʻlga olindi. Tumanning «Oʻqchi» mahallasida harakatlanib ketayotgan T. Sh. ismli fuqaro shu hududda xizmat olib borayotgan xodimlarda shubha tugʻdirdi. Shu bois uni toʻxtatib, shaxsiga oydinlik kiritmoqchi boʻlishganida, fuqaro bezovtalanib, qochishga harakat

qiladi. Koʻrilgan tezkor chora-tadbirlar natijasida u qoʻlga olinib, xolislar ishtirokida tekshirib koʻrilganida, yonidan ikkita sellofan parchasiga oʻralgan oʻtkir hidli gashish va mari-xuana giyohvandlik moddalari borligi aniqlandi.

Mazkur holat yuzasidan ham tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borilmoqda.

Azizbek QODIROV,
mayor.

Fargʻona viloyati.





Урок духовности и просвещения

ПРЕОДОЛЕНИЕ СТРЕССА И ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ В ПРОЦЕССЕ СЛУЖБЫ

В условиях современной жизни устойчивость к стрессам становится обязательным качеством для тех, кто выбрал путь служения обществу. Для представителей органов внутренних дел психологическая стойкость – это основа профессиональной надежности, внутреннего равновесия и умения действовать правильно даже в самых сложных ситуациях. Это качество формируется благодаря системной работе по духовности, просвещению и подготовке, которая последовательно внедряется в системе МВД.



Служба требует постоянно-го самоконтроля. Личный состав ежедневно сталкивается с конфликтными ситуациями, эмоционально насыщенными обстоятельствами и нарушениями закона. Именно в такие моменты важны выдержка, умение сохранять ясность мысли и способность вести корректный диалог. Представитель органов внутренних дел является воплощением закона, а значит, обязан сохранять спокойствие, разъяснять суть нарушений и действовать строго в рамках установленных правил.

Большая роль в этом принадлежит психологам служб духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения. Регулярно проводятся тренинги, тематические занятия, беседы по развитию культуры общения и профилактики стрессовых состояний. Такая работа помогает укреплять внутренний баланс, развивать навыки эмоционального управления и поддерживать высокий уровень моральной устойчивости. Значительное внимание уделяется теме культуры диалога, умению вести себя уважительно даже с трудным контингентом, что является важной частью духовно-нравственного воспитания.

Важнейшей составляющей становится психодиагностика.

Она позволяет оценить эмоциональное состояние личного состава, выявить ключевые особенности поведения и определить направления поддержки. По итогам диагностики каждому участнику предоставляются рекомендации и методическая помощь. Это помогает предупредить выгорание, снизить нагрузку и сформировать более устойчивое отношение к служебным трудностям.

Психологи также задействованы в процессах отбора и назначения на должности, участвуют в работе комиссий, проводят собеседования и оценку профессионально важных качеств. Такой подход улучшает качество кадров, формируя сильный и психологически устойчивый коллектив, который готов к высоким требованиям службы.

Особое внимание уделяется программам психологической реабилитации. Обучающие занятия в рамках этих программ направлены на освоение способов управления эмоциями, предотвращение стрессовых ситуаций и укрепление навыков конструктивного общения. Подразделения регулярно участвуют в тренингах по культуре диалога, методам профилактики конфликтов и современным инструментам оценки поведения.

скими нагрузками и сохраняет гармонию в повседневной работе. Духовность становится опорой, которая позволяет выдерживать любое давление и принимать решения с позиций зрелости и мудрости.

Системная работа по укреплению морально-психологического состояния, развиваемая в органах внутренних дел, создает условия, в которых каждый представитель службы получает поддержку, знания и инструменты для уверенного выполнения своих обязанностей.

Вместе все эти элементы – профессиональная подготовка, психологическая помощь, поддержка коллектива, духовное развитие и личная дисциплина – создают модель сотрудника ОВД, который не только умеет действовать в сложных условиях, но и сохраняет внутреннюю устойчивость, остается эмоционально зрелым и внимательным к своему состоянию. Такие сотрудники становятся опорой службы, примером для молодежи и важной частью общего укрепления правопорядка в стране.



Эти занятия способствуют развитию уверенности, снижают эмоциональное напряжение и формируют здоровую атмосферу в служебной среде.

Важно отметить, что духовно-просветительская работа помогает укрепить чувство ответственности, воспитывает понимание высокой социальной миссии и формирует внутренний стержень. Человек, который осознает ценность своей профессии и значимость служебного долга, легче справляется с психологиче-

В условиях растущих вызовов и изменений психологическая устойчивость становится таким же важным навыком, как и умение применять закон. И сегодня сотрудники органов внутренних дел демонстрируют, что готовы к службе не только профессионально, но и морально, что они обладают твердостью духа, зрелостью и ответственностью, позволяющими выполнять долг с честью и достоинством.

Юлия ЧАЙКИНА,
соб. корр.



KUN VA TUN POSBONLARI

Inson sivilizatsiyasining taraqqiyoti bilan birga, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyoj ham paydo bo'lgan. Shu tariqa, ilk qo'riqlash xizmati miloddan avvalgi davrlardayoq qadimgi Misr va Bobilda shakllangani tarixdan ma'lum. Keyinchalik Afina va Rimda davlat qo'riqchilari shahar darvozalari, saroy va omborlarni qo'riqlash vazifasini bajargan. Zamonaviy ilk qorovul xizmati esa XVIII asrda London shahrida yo'lga qo'yilgan bo'lib, u tunda shahar mulki va savdo nuqtalarini nazorat qilishga ixtisoslashgan edi.

XAVFSIZLIK QALQONI



Bugungi kunda mam-lakatimizda obyektlar xavf-sizligini ta'minlash borasida yo'lga qo'yilgan tizimlar samara bermokda. Xususan, Andijon viloyati IIB Qo'riqlash boshqar-masi faoliyati buning yaqqol isbotidir.

— Davlat obyektlari, o'ta muhim va toifalangan in-shootlar, shuningdek, fuqa-rolar hamda tadbirkorlarning mol-mulki ishonchli qo'riqlan-mokda, — deydi boshqarma Axborot guruhi bosh mutaxas-sisi, kapitan Muslimbek Erga-shev. — Viloyatimizdagi bozor-lar, savdo nuqtalari, korxonalar, ko'p qavatli uylar, ta'lim muas-sasalari, hatto choyxonalar va dorixonalarda ham bizning xodimlar kun-u tun xizmatda. Bu nafaqat mulk xavfsizligini ta'minlaydi, balki hamyurtlari-mizda ishonch tuyg'usini mus-tahkamlaydi.

O'tgan yil yakuniga qadar 5037 ta obyekt va 2318 ta xonadon qo'riqlash tizimiga ulangan bo'lsa, ayni paytda 8608 ta obyekt va 6449 ta xonadon ishonchli qo'riqqa olingan. Demak, himoya qamrovi mos ravishda 60 va 40 foizga oshgan. Bu esa aholi va tadbirkorlar tomonidan tizimga bo'lgan ishonchning ortayotganidan darak beradi.

Qo'riqlash xizmati faoli-yatida zamonaviy texnika va innovatsion yechimlar muhim ahamiyatga ega. Ayni paytda boshqarma tasarrufida 392 ta kuzatuv kamerasi, 420 ta sig-

nalizatsiya tizimi hamda 16 ta monitoring markazi mavjud. GPS tizimlari, video-registratorlar va bodikameralar yordamida real vaqtda nazorat olib boriladi. Bu tizim faqat sodir bo'lgan hodisaga javob berish emas, balki uning oldini olish imkonini ham yaratadi.

Har qanday texnik vosita inson aql-zakovatiga taya-nadi. Shu bois kadrlar mala-kasini oshirish hamma vaqt muhim ahamiyat kasb etgan. Yil davomida 300 nafar xodim malakasini oshirib, yangi tex-nologiyalar va qonunchilikda-gi o'zgarishlar bo'yicha bilim olmoqda. Ular nafaqat jismoniy tayyorgarlik, balki huquqiy savodxonlik bo'yicha ham muntazam o'qitiladi. Bu esa faoliyat samaradorligini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

— Qo'riqlash xizmatidan foydalana boshlaganimizdan buyon ko'nglimiz xotirjam, — deydi Andijon shahridagi «Vella Elegant Cafe» MCHJ rahbari Hayotbek Qozoqov. — Negaki, yillar davomida mis-qollab yiqqan mulkimizni har kimga ham ishonib bo'lmaydi. Buning uchun kafolatli va sifatli xizmat turigina bizni xotirjam qila oladi. Qo'riqlash xizmati xodimlari mas'uliyat va javob-garlik bilan ishlaydi, texnik kuzatuv tizimlari esa tinimsiz faoliyatda. Bu men uchun ham, ishchilar uchun ham katta ishonchdir.

Saminjon HUSANZODA,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

AYOL VA JAMIYAT

YORUG' ISTIQBOLGA INTILIB



... Sanobar (ismlar o'zgartirildi) shar'iy nikoh asosida o'z baxtini top-dim, deb o'ylagan edi. Biroq taqdir har doim ham insonga kulib boqavermas ekan. Har qancha harakat qilsa-da, hayoti iziga tushmadi, baxt undan uzoqlashdi. Oqibatda bir nafar mitti farzandi bilan ota uyiga qaytib keldi.

Ona baribir — ona-da, dilidagi og'riqlarni yashirishga urinib, qizini bag'riga oldi. Ammo xonadonning boshi hisoblangan ota bunga ko'ni-kishni istamadi. «Odamlar nima dey-di? Mahalla-ko'y ichida qanday bosh ko'tarib yuraman?» degan o'ylar uning qalbini tirnardi. Shu bois qizini xush-lamas, hatto ochiqdan-ochiq ortga qaytishini istardi. Sanobar esa «Erim bilan yasholmayman», deb qat'iy turib oldi. Natijada ota qiziga nisbatan ruhiy bosim va tazyiqni avj oldirdi. Axiyri zug'umga chidolmagan Sanobar Norin-tumani IIB JXX HPB xotin-qizlar masa-lalari bo'yicha katta inspektori, katta leytenant Nigora Norboyevaga muro-jaat qilishga majbur bo'ldi...

Nigora Norboyeva profilaktika ins-pektori va mahalla xotin-qizlar faoli-bilan birga murojaatchining xonadoniga

bilan qadam qo'ydi. Bugungi kunda u tinch-xotirjam turmush kechirmoq-da, o'z hayotidan mamnun. Lavhamiz qahramoni bu baxtiyorlikda o'z hissassi borligidan faxrlanadi. Yosh bo'lsa-da, zimmasida mas'uliyatli vazifalarni sid-qidildan ado etib kelayotgan Nigora Norboyevaning sa'y-harakatlari bilan joriy yil boshidan buyon bugungi kunga qadar tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 350 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirildi.

— Dunyoning eng xushbo'y, xushro'y yaratig'i bo'lgan gullarga maftunligim bor. Ularni sevib, husnidan quvonib parvarishlasam, ko'nglimning g'ubor-lari tarqaladi. Yana shuni ham minnat-dorlik bilan aytishim mumkinki, meni qo'llab-quvvatlovchi ota-onam, o'z maslahatlarini ayamaydigan ustozlarim bor. Ular har bir qadamimni kuzatib, keragida suyak, keragida yuksak mar-ralarga undab kelishyapti, — deydi u.

Tinib-tinchimas qahramonimiz bo'sh vaqtini unumli o'tkazib, ingliz tilini mukammal o'rganishga bel bog'ladi. Intilishlarining samarasi o'laroq, til bo'yicha talab etiladigan sertifikatga ega bo'ldi.



kirib borganda, otaning qiziga haqoratli so'zlar aytayotgani ustidan chiqishdi. Shu tariqa, Sanobarning shikoyati to'liq tasdiqlandi.

Himoya orderi rasmiylashtirilgach, u Namangan viloyati Ayollarni reabi-litatsiya qilish markaziga joylashtirildi. Markazda unga tibbiy va psixologik yor-dam ko'rsatilib, kasb-hunar o'rgatildi.

Ko'p o'tmay Sanobar yangi ha-yotga o'ziga ishonch va katta umid

Katta leytenant N.Norboyeva ish jarayoniga yangiliklar kiritishdan char-chamaydi. Uning rejalari ham, takliflari ham bisyor. Chekka bir tumanda shunday shijoatli va mehnatkash yosh xodimalarning borligi yurtimizning yorug' istiqboliga ishonchimizni yanada mustahkamlaydi.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Namangan viloyati.





«XAVFSIZ VA SOG'LOM YURT» OYLIQI

NAZORAT VA TARG'IBOT KUCHAYTIRILDI



Surxondaryo viloyati. Oylik doirasida Sho'rchi tumanida jinoyatchilik xavfi yuqori bo'lgan mahallalarda, jumladan, «qizil» toifadagi «Shaldiroq» hamda «Bo'ston» mahallalari yettiligi ishtirokida yig'ilish o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha mutasaddilarga tegishli ko'rsatmalar berildi.

– Dastlabki o'n kunda tezkor-qidiruv xizmati xodimlari tomonidan giyohvandlik moddasi savdosi bilan bog'liq 4 ta holat aniqlandi, profilak-

tika yo'nalishida 6 ta holat bo'yicha ma'muriy nazorat o'rnatildi, – deydi tuman IIB JXX HPB profilaktika inspektori, leytenant Sardor Bobonazarov. – Ikki ta holatda voyaga yetmaganlar tungi vaqtda bemaqsad yurgani aniqlanib, ularning bir nafari Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga joylashtirildi.

Tezkor profilaktik tadbirlar davomida ichkilikbozlik va giyohvandlikka ruju qo'ygan, ruhiy tajovuzkor bo'lgan 5 nafar shaxs majburiy tarzda davolanish muassasalariga yuborildi.

1838 nafar huquqbuzar profilaktik hisobga olindi. Mayda bezorilik qilgan 83 nafar shaxsga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtirilib, qonun ixtiyoriga topshirildi. «Tig'» tadbiri jarayonida esa fuqarolardan 32 ta tig' olib qo'yildi. Bundan tashqari, sud tomonidan tayinlangan cheklov qoidalariga amal qilgan 13 nafar mahkum muddatidan oldin ozod etildi.

Shuningdek, 30 dan ortiq jamoat joylariga yangi videokuzatuv kameralari o'rnatilib, mazkur hududlarni masofadan turib kuzatish imkoniyatining yaratilgani huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, jinoyatlarni «issiq

izida» fosh etishda asqatmoqda. Qolaversa, «102» tizimi orqali kelib tushgan murojaatlar yuzasidan so'rovlar o'tkazilib, qonun doirasida tezkor choralar ko'rilmogda. Bunda murojaatlar bo'yicha yig'ma jildlar tayyorlanib, jinoyat ishlari bo'yicha sudga taqdim qilindi.

Ayni paytda aholi o'rtasida kiberxavfsizlik bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilyapti. Jamoat joylari, bozorlar va ta'lim muassasalarida kiberjinoyatlar haqida ma'lumot berilib, fuqarolarga ogohlantiruvchi materiallar tarqatilmogda.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.



HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

BEFARQ BO'LMAYLIK

Namangan viloyati. Giyohvandlik vositasining bir grammi ham inson salomatligi uchun juda katta xavf tug'diradi. Tahlillarga qaraganda, zahri qotil qanchadan-qancha insonlarning hayotiga zomin bo'lmoqda. U miyani zaharlaydi, yurakni zaiflashtiradi, ruhiyatni izdan chiqaradi. Eng og'iri, giyohvandlik tufayli bugun dunyo bo'ylab minglab yoshlar kelajagidan ayrilmoqda, oilalar parokanda bo'lmoqda, bolalar yetim qolmoqda.

Yaqinda Namangan shahridagi «Shodlik» mahallasi hududida joylashgan «Game Zona» nomli kompyuterxonada ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadbir jarayonida o'yinxona egasi A.S.ning

yonida gashish giyohvandlik vositasi borligi aniqlandi. Mazkur holat yuzasidan tergovga qadar tekshiruv harakatlari boshlandi. Shunda A.S. shahar IIB TQX JQB tezkor vakili, katta leytenant Mirlaziz Shomatovning xizmat xonasiga kelib, o'ziga nisbatan to'plangan hujjatlarni tergovga oshirmaslik evaziga unga 2 ming AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi. Halol xizmatni ustuvor qo'ygan xodim bu noqonuniy taklifni rad etadi.

IIV Shaxsiy xavfsizlik bosh boshqarmasi Namangan viloyati boshqarmasi va Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Namangan tumani bo'limi xodimlari hamkorligida o'tkazilgan tezkor tadbir fuqa-

ro A.S. katta leytenant M.Shomatovga 2 ming AQSH dollarini pora tariqasida berish paytida qo'lga olinadi. Hozirda ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Kezi kelganda alohida ta'kidlash o'rinli, ayrim ota-onalar farzandi kompyuter o'yingohlarida do'stlari bilan vaqt o'tkazayapti, deb ko'ngillarini xotirjam qilishadi. Ammo yoshlar kelajagiga tahdid har joyda bo'lishi mumkin. Kompyuterxona egasi A.S.ning yonida giyohvandlik vositasini saqlab yurishi buning isboti. Uning maqsadi nima bo'lgani hozircha noma'lum, ammo bir narsa ravshan — bu holat befarqlikka yo'l qo'ymas-

ligimiz kerakligini yana bir bor eslatadi.

Biz, kattalar, ertangi kun egalari bo'lgan farzandlarimizni hech qachon e'tiborsiz qoldirmasligimiz lozim. Chunki zahri qotilning «bexavf dozasi» mavjud emas. Uning bir grammi ham tubsiz jar sari qo'yilgan bir qadam bo'lishi va butun hayotini xarob, gulday umrini xazon qilishi mumkin.

Har birimiz bu xavfdan uzoq bo'lish, o'zimizni ham, atrofda-gilarni ham asrash va sog'lom hayotni tanlash uchun mas'ulmiz. Katta leytenant Mirlaziz Shomatov esa bu borada barchamizga ibratdir.

Adolat FAYZIYEVA,
o'z muxbirimiz.



Kimning qo'lida quyidagi besh narsa jilovi bo'lsa, yaxshi hayotining garovi bo'lur: birinchisi – tansihatlik, ikkinchisi – omonlik, uchinchisi – rizqining mo'lligi, to'rtinchisi – sodiq do'st va beshinchisi – farog'at. Kimki shu besh narsadan mahrum etilgan – xush hayot eshigi uning oldida bekilgan.

Abdurahmon JOMIY.



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

Хизмат тақозосига кўра не-не машаққатли йўллардан ўтган, тақдир синовларини мардонавор енгиб, 83 баҳорни қаршилаган истеъфодаги майор Собир Ортиқов ҳамон ҳамкасбу шогирдлари ардоғида. Унинг ҳаёти ҳеч кимникига ўхшамайди, ўзи ҳам ҳеч кимга ўхшамайди. Қалби, меҳри, самимийлиги билан бир кўрган киши билиш, икки кўрган киши қадрдон бўлиб кетади.



ЮРАГИДА ҚУЁШИ БОР

Дилкаш инсон, ғамхўр устоз Собир бобо раҳматли умр йўлдоши Мавжуда Ортиқова билан уч қиз ва уч ўғилни тарбиялаб, эл корига ярайдиган инсонлар қилиб вояга етказишди. Улар ҳозир турли соҳаларда юрт ободлиги йўлида меҳнат қилмоқда. Ўттизга яқин неварачевараларнинг меҳрибон ва дуоғўй бобоси уларга ҳам ҳаётий сабоқлар бериб, тўғри йўл кўрсатмоқда.

Бундан олти йил муқаддам Собир бобо хонадонидан бўлган эдик. У киши ҳовлиснинг этагида ихчамгина 70 квадрат метрли иссиқхона ташкил қилганда, кўриб ҳавасим келганди. Кунларнинг бирида яшаш уйида лимон етиштираётган кишини ойнаи жаҳонда кўриб қолган лавҳамиз қаҳрамони ўғли билан маслаҳатлашиб, иссиқхона ташкил қилади. Олти туп лимон ва шунча мандарин ниҳолларини ўтказиб, парваришlashга киришади. Кўчатлар мевага киргунча, бўш жойларига помидор, булғор қалампири, бақлажон экиб мўл ҳосил олади. Учинчи йилга келиб, ниҳоллар ҳам ҳосилга киради.

– Ҳақиқатан ҳам, устозимнинг ишига қойил қолмасдан илож йўқ. У киши ўзи азалдан тиниб-тинчимас инсон, – дейди туман ИИБ фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги капитан Ҳайдар Солиҳов. – Ёшлари саксондан ошибдики, ҳали-ҳамон тетик. Туманимизда тўрт юз нафарга яқин фахрий бор. Боқувчисини йўқотган ва ногирон фахрийларнинг ҳолидан доимий хабардоримиз.

Ҳикоямиз қаҳрамони 1967 йилда Вобкент тумани ИИБ вояга етмаганлар ишлари бўйича инспектор лавозимида хизматни бошлаган. Шофиркон ва Вобкент туманларида хизмат қилган. Орада аввал хизматдан ажралмаган ҳолда, Тошкент давлат университетининг ҳуқуқшунослик

факультетида, сўнгра Россия Федерацияси ИИБ Академиясида кундузги йўналишда таҳсил олган. С. Ортиқовни ҳам собиқ иттифоқ марказидан келган манфур кучлар томонидан тўқиб чиқарилган машъум «ўзбеклар иши» гирдобини ўз домига тортади. Қуруқ тухматларга қарши ўз сўзида қатъий тургач, ишдан олишади.

– Адолат қарор топиб, 1991 йилда устозим хизматга қайта тикланди, – дейди Ҳ. Солиҳов. – Чунки у кишини ноҳақ ишдан олишганди. Собир ака ҳалол-покиза ишлаган, ёшларга ўта ғамхўр раҳбар эди. Биргина мисол, ўтган асрнинг саксонинчи йиллари туман ИИБ биноси анча эски, ходимларга хоналар камлик қиларди. Собир ака елиб-югуриб, КМКнинг қаровсиз қолган биносини ҳокимдан сўраб олгач, ходимларнинг ўзлари ҳашар йўли билан қайта таъмирлаш ишларини олиб боришди. Шунингдек, спорт ўйингоҳи, хизмат итлари учун хоналар қуриб фойдаланишга топширилди. Бундан ташқари, кўриклаш, йўл ҳаракати ва ёнғин хавфсизлиги хизматларини, қолаверса, профилактика инспектори учун таянч пункти ҳам ташкил этиб, шахсий таркибни 100 нафарга етказди.

Вилоят ИИБ ЖТСБ катта инспектори, Когон тумани ИИБ қабул қилиш ва тақсимлаш бўлими бошлиғи лавозимларида хизмат қилган Собир Ортиқов 1993 йили майор унвонида пенсияга чиқди. У эришган барча ютуқларида устозларининг хизмати катта бўлганини алоҳида таъкидлайди. Хусусан, марҳум устозлари Зариф Шарипов, Шоди Ашуров, Фазлиддин Зайниев, Имом Санокуловларни доимо хотирлаб, ҳақларига дуолар қилади.

Мирзокул АҲАДОВ,
ўз мухбиримиз.

Бухоро вилояти.

SOHA FIDOYILARI

BAXTLI TASODIF
yoki mehr tafti

Ba'zan tasodiflar ham inson hayotiga katta ta'sir qiladi. Balki o'sha tasodiflar bejiz yuz bermas, taqdirning ishorasidir. Alisher Xolov Samarqand qishloq xo'jaligi kasb-hunar kollejining kinologiya yo'nalishida tahsil olayotib, amaliyot o'tash uchun Navoiy viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'limiga keldi. Vaholanki, boshqa tashkilot yoki muassasaga yo'llanma berilishi ham mumkin edi. Shaharda ulg'aygan, jonivorlarga uncha e'tibor bermaydigan yosh yigit bu yerda veterinariya guruhi xodimlarining faoliyatini kuzatib, shu kasbga qiziqib qoldi.

– To'g'risi, kinologiya sohasi bilan bog'lanib qolaman, deb hech ham o'ylamagandim, – deydi safdor Alisher Xolov. – Amaliyot jarayonida ustozlarimdan ko'p narsa o'rgandim. Sohaga qiziqishim ortgani sayin ko'proq savol beradigan bo'ldim. Qiziqishlarim esa maqsadga aylanib, kinolog-veterinar bo'ldim.

Ayni paytda lavhamiz qahramoni veterinariya xizmati feldsheri. U bo'limdagi 30 dan ortiq xizmat itlarining sog'lig'ini muhofaza qilishda, ularni klinik ko'rikdan o'tkazishda, emlash va parvarishlashda hamda xizmatga tayyor holda saqlab turishda veterinar shifokorga yaqindan yordam beradi. Ularning har biri alohida yondashuv, diqqat va doimiy kuzatuvni talab etadi.

Alisher endigina xizmatni boshlagan paytlari yangidan olib kelingan xizmat iti og'ir kasallikka chalilib qoldi. Tug'ib, ancha zaiflashib qolgan itni maxsus izolyatsiyaga olib, davolash choralari ko'rildi. Biroq uning holati doimiy parvarish, tez-tez ovqatlantirish, infuziya, vitamin qo'shimchalari berish va har soat nazorat qilib turishni

talab etardi. Shunda Alisher itning bolalarini uyiga olib ketib, bir oy davomida ularning har birini alohida mehr bilan parvarishladi. To'g'ri ovqatlantirish va immunitetini ko'tarish uchun davolash amaliyotlari o'z samarasini berdi. Jonivorlar birin-ketin kuch yig'ib, oyoqqa turdi. Ona itga «Linda» deb nom berdi.

– Bilasizmi, jonivorlar ham insonlar kabi mehr taftini his etishadi. Ancha vaqt davolanishda bo'lgan «Linda» kinologga biriktirilgandan so'ng ham tekshiruvlar paytida harakatlari bilan uning uchun qadrli ekanligimni bildirardi. Yonimga yugurib kelardi, talablarimni so'zsiz bajarardi. Shundan so'ng jonivorlarga mehrim yanayam oshdi.

Ularning sog'lig'ida nuqsoni bo'lmasligi xizmat samaradorligida ham muhim ahamiyatga ega. Ko'rish, hid bilish, tayanch-harakat a'zolari sog'lom bo'lsagina, o'ziga topshirilgan vazifani a'lo darajada bajara oladi, – deydi lavhamiz qahramoni.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.





Женщина в погонах

Службу начала в 2003 году, когда была принята на должность инспектора канцелярии отдела профилактики правонарушений УВД Сырдарьинской области. В том же году поступила на заочное отделение исторического факультета Гулистанского государственного университета. Набрав практический опыт, была переведена на должность инспектора по делам несовершеннолетних Гулистанского ГОВД.

В 2015 году М. Тожиева была назначена инспектором отдела пробации УВД области. Здесь объем обязанностей значительно расширился: контроль за лицами, подвергнутыми наказанию, не связанным с лишением свободы, и содействие их реинтеграции в общество требовали высокой ответственности и терпения. Несмотря на опыт, ей вновь пришлось осваивать новые навыки. Осознавая, что многие осужденные морально подавлены, она старалась быть им и психологом, и наставником. Объезжая районы, помо-

Подполковник Малохат Тожиева родом из Кувинского района Ферганской области. После замужества она переехала в Сырдарью и тогда еще не представляла, что ее путь будет связан с органами внутренних дел.



гала трудоустроить поднадзорных, направляла на курсы профессиональной подготовки, содействовала нормализации семейной обстановки. Благодаря ее усилиям десятки людей поверили

в себя и смогли начать новую жизнь.

Подполковник Малохат Тожиева сегодня исполняет обязанности командира группы по обеспечению карантинных мероприятий отдела охраны

общественного порядка СОБ УВД области. Она организует комплекс мероприятий, направленных на контроль ответственности продаваемой продукции санитарным требованиям, предот-

вращение поступления на рынок некачественных мясных, молочных и рыбных продуктов. С начала года с торговых прилавков было изъято около 12 тонн некачественного мяса, 3,5 тонны молочной продукции и около 1,5 тонны рыбной. В ходе мероприятий на постах «Сайхун», «Акалтын» и «Сырдарья» предотвращено попадание в торговлю десятков тонн небезопасной мясной продукции. Эти меры позволили предупредить возможные угрозы здоровью населения.

Продолжая традиции справедливости и долга, двое детей подполковника Малохат Тожиевой также выбрали путь службы. Один из них – старший лейтенант Акмалжон Тожиев служит в Управлении охраны УВД области.

Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,
соб. корр.

Сырдарьинская область.

■ Кашкадарьинская область

БОДРСТВУЮЩИЕ КРУГЛОСУТОЧНО

У старшего сержанта Нуриддина Хужаева – почти двадцатилетний стаж службы в органах внутренних дел. Начиная инспектором батальона патрульно-постовой службы УООП СОБ УВД области, он перенял профессиональные навыки у своего наставника – ныне заместителя начальника УООП СОБ УВД подполковника Акмалжона Ахмедова. Добросовестное отношение к делу и ответственное исполнение служебных задач принесли ему уважение коллег.

Бдительность, трудолюбие и профессиональная подготовка позволили Нуриддину Хужаеву успешно продолжить службу в Управлении безопасности дорожного движения. В последующие годы работал старшим инспектором ОБДД ОВД Яккабагского района, внося весомый вклад в повышение безопасности дорожного движения и профилактику ДТП.

Далее Нуриддин продолжил службу в должности командира группы патрульно-постовой службы подразделений обеспечения общественного порядка Шахрисабзского ГОВД, а также инспектора дорожно-патрульной службы Управления по обеспечению безопасного туризма област-



ного УВД области, передавая накопленные знания молодым сотрудникам.

Сегодня старший сержант Нуриддин Хужаев – помощник дежурного дежурной части ОВД Яккабагского района. Он безукоризненно выполняет свои обязанности, пользуется уважением коллег и доверием руководства.

– В каждой системе есть опорное звено, которое координирует ежедневные рабочие процессы. Трудно представить органы внутренних дел без дежурной части, – подчеркивает старший сержант Нуриддин Хужаев. – Именно дежурная часть наблюдает и анализирует оперативную обстановку на местах, доводит до сотрудников необходимые указания, обеспечивает направление следственно-оперативной группы по сообщениям о правонарушениях, а также координирует взаимодействие профильных служб.

Содик РАХИМОВ,
соб. корр.



MAHALLANING ICHKI ISHLAR ORGANLARIDAGI VAKILI

BIRLIKKA NIMA YETSIN

Tuproqqal'a tumanida-gi «Sayapir» mahallasida 4600 nafardan ziyod aholi istiqomat qiladi. Bu yerda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, bandlikni ta'minlash, uyushmagan yoshlarni o'qitish va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda profilaktika inspektori, kapitan Umirbek Naziyev, mahalla fuqarolar yig'ini raisi Komil Bekturdiyev, hokim yordamchisi Ruslan Qurbonov, xotin-qizlar faoli Sayyora Jumaniyozova, ko'chaboshilardan Ilhom Sobirov, Erkin Bobojonov singari ko'plab fidoyi insonlarning hissasi katta bo'lyapti.

Mahalladagi ichki ko'chalarning kirish-chiqish joylariga, maktabga-cha va maktab ta'limi muassasalariga, tadbirkorlik subyektlariga, shuningdek, jamoat joylariga jami 75 ta kuzatuv kamerasi o'rnatilgan. Buning natijasida ko'plab huquqbuzarliklarning barvaqt oldi olinib, mahalla osoyishtaligi ta'minlanishiga erishilmoqda.

– Kam ta'minlangan hamda notinch oilalar, jinoyat va huquqbuzarlik sodir qilishga moyil bo'lgan shaxslar, farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ota-onalar, uyushmagan yoshlarning ro'yxatlari shakllantirilib, mahalla yetiligi bilan



Kapitan U. Naziyevning hushyorligi tufayli bir jinoyat «issiq izida» fosh etildi.

K.Temur (ism-sharifi o'zgartirildi)ning giyohvand moddalar oldi-sotdisi bilan shug'ullanayotganidan xabar topgan profilaktika inspektori darhol IIB rahbariyatiga murojaat qildi. Shundan so'ng bu kimsaning kundalik turmush tarzi kuzatuv ostiga olindi. Tezkor ma'lumotlar asosida o'tkazilgan tadbirida esa Temur o'z xonadonida ko'p miqdorda opiy hamda marixuana giyohvandlik vositasini sotish maqsadida saqlab qo'ygani aniqlandi. Shuningdek, xonadondan elektron o'lchov tarozisi, turli sovuq qurollar, chekish uskunolari ham ashyoviy dalil tariqasida hujjatlashtirib olindi.

Mahallada o'g'rilik va boshqa turdagi mulkiy jinoyatlarning barvaqt oldini olishga ham alohida e'tibor qaratilgan. Bu borada profilaktik targ'ibot tadbirlari kuchaytirilib, qo'riqlash xizmatidan samarali foydalanish, fuqarolar o'z mol-mulkini qarovsiz qoldirmasligi yuzasidan aholiga tushuntirishlar berilyapti.

Xudoybergan JABBOROV,
jurnalist.

Xorazm viloyati.

Joriy yilning o'tgan davrida profilaktika inspektori tomonidan:

- turli huquqbuzarliklar sodir etgan 250 nafardan ziyod fuqarolarga nisbatan ma'muriy bayonnoma rasmiylashtirildi;
- muqaddam sudlangan shaxslardan 4 nafariga ma'muriy nazorat o'rnatildi;
- jinoyat sodir qilishga moyil bo'lgan 42 nafar shaxs profilaktik hisobga olindi;
- bir nafar shaxs reabilitatsiya markaziga, 3 nafari majburiy davolash muassasasiga joylashtirildi;
- mahalla faollari bilan hamkorlikda 3 ta oilada sog'lom muhit yaratildi;
- 47 marotaba profilaktik targ'ibot tadbirlari o'tkazildi;
- fuqarolar tomonidan bildirilgan 134 ta murojaat ijobiy hal etildi.

hamkorlikda manzilli profilaktik ishlar olib borilmoqda, – deydi profilaktika inspektori, kapitan Umirbek Naziyev. – Shuningdek, nizoli qo'ni-qo'shnilar, qarindosh-urug'larni aniqlash va ular bilan profilaktik ish olib borish, oila-turmush doirasidagi

kelishmovchiliklar natijasida sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning barvaqt oldini olishga jiddiy e'tibor qaratyapmiz.

Jinoyatni aniqlash hamda fosh etish ichki ishlar organlari xodimidan alohida kasbiy mahoratni talab etadi.

JAZONI IJRO ETISH TIZIMIDA

MAXSUS KURS YAKUNLANDI

IIV huzuridagi JIED xodimlari uchun Bojxona institutining Qayta tayyorlash va malaka oshirish fakultetida «Profayling va rentgen tasvirini tahlil qilish» yo'nalishida maxsus o'quv kursi tashkil etildi.

Unda ishtirokchilar bilan rentgen tasvirida qurol-yarog', portlovchi va psixotrop moddalar, giyohvandlik

vositalari hamda sovuq qurollarni aniqlash texnikalarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha avtomat-



lashtirilgan axborot tizimlari va dasturlarida trening mashg'ulotlari o'tkazildi.

Shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlari faoliyatida psixologik bilimlarning o'rni, psixologik metodlardan foydalanish, «Profayling»

tizimi, giyohvandlik vositalari kont-rabandasi bilan shug'ullanuvchi shaxslarni aniqlashning psixologik usullari va boshqa muhim mavzularda bilim hamda ko'nikmalar berildi.

Shahrizod SHOKIROV,
kapitan.



Мы против коррупции!

Тем не менее, несмотря на предпринимаемые меры, все еще встречаются случаи, когда нарушители закона пытаются скрыть свои действия, предлагая денежное вознаграждение.

Так, гражданин Д. И., получив груз в Ходжейлийском районе, несмотря на позднее время и сильную усталость, намеревался продолжить путь на своем автомобиле. Покинув густонаселенную территорию, он передал управление знакомому Л. А., взявшемуся помочь в дороге. Сам же водитель уснул в кабине. Между тем Л. А. не имел водительского удостоверения.

На посту дорожно-патрульной службы «Бестобе» при выезде из Нукуса грузовик был остановлен сотрудниками ДПС. Согласно закону, нарушение подлежало оформлению, а автомобиль – помещению на штрафную стоянку. В это же утро командир отряда ДПС третьей межрегиональной зоны Каракалпакстана, старший лейтенант Азизбек Ешниязов прибыл на пост для планового ознакомления с ходом службы. Увидев перед собой офицера с более высоким званием, Д. И.

ВЕРНОСТЬ ДОЛГУ

Как известно, коррупция – один из пороков, вызывающих серьезную обеспокоенность мирового сообщества. В нашей стране проводится широкая и системная работа по борьбе с этим злом, предупреждению его проявлений и формированию нетерпимого отношения к любым его формам.



рассказал ему о случившемся и попросил содействия в возврате автомобиля, предложив за помощь 100 долларов США.

Старший лейтенант А. Ешниязов разъяснил гражданину, что дача взятки является незаконной и влечет ответственность. Однако Д. И. проигнорировал предупреждение. Тогда офицер сообщил о случившемся руководству, представив рапорт и аудиозапись разговора с нарушителем. В записи отражено, что Д. И. пытался предложить взятку, а затем, осознав серьезность содеянного после пояснений старшего лейтенанта, отказался от противоправных намерений и выразил раскаяние. Таким образом, А. Ешниязов своевременно пресек коррупционную ситуацию.

Коррупция и взяточничество опасны еще и тем, что подрывают доверие граждан к государственным органам. Поэтому противодействие этому злу – обязанность каждого из нас.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
соб. корр.
Республика Каракалпакстан.

■ Наманганская область

ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕРЫ – ОСНОВА БЕЗОПАСНОСТИ

СОБ УВД области и ее подразделения в течение года проделали значительный объем работы. Эти усилия принесли ощутимые результаты, свидетельствующие о положительных изменениях в обеспечении общественного порядка и безопасности. Существенный вклад в общие показатели внес батальон патрульно-постовой службы.



– В результате оперативной и эффективной деятельности ППС были выявлены 28 разыскиваемых лиц и 26 пропавших без вести граждан. По горячим следам раскрыты 53 преступления. Выявлены 21 853 административных правонарушителя, материалы по которым переданы инспекторам

профилактики и сотрудникам дорожно-патрульной службы, – отметил командир батальона патрульно-постовой службы УООП СОБ УВД области подполковник Ахрорбек Хотамов. В ходе принятых мер 593 гражданина, находившихся в состоянии сильного алкогольного опьянения, направле-

ны в наркологический диспансер. Выявлены 707 лиц, занимавшихся попрошайничеством, которые переданы в территориальные отделы внутренних дел. У 541 гражданина изъяты ножи, кастеты и другие опасные предметы.

Особое внимание в работе патрульно-посто-



вой службы уделяется взаимодействию с общественностью. В текущем году сотрудники ППС 27 066 раз проверили деятельность служб охраны и выявили 250 нарушений. Руководителям соответствующих предприятий и организаций внесено 165 представлений.

Кроме того, по патрульным маршрутам на 5 496 объектов были распространены «Уведомительные листы», что способствовало налаживанию постоянного и открытого диалога с населением.

Эти меры играют важную роль в укреплении доверия и развитии парт-

нерских отношений между правоохранительными органами и гражданами. Они служат не только инструментом поддержания правопорядка, но и эффективным механизмом обеспечения общественной безопасности.

Оперативное раскрытие преступлений, применение строгих мер по административным правонарушениям, усиление профилактической работы – яркий пример системного подхода к обеспечению безопасности в регионе.

Жахонгир
ТУХТАСИНОВ,
соб. корр.



MULOHAZA

BOLANGIZNING HUQUQLARINI BILASIZMI?

...Bir kuni 13–14 yoshli qizlarning jamoat joyida sigareta tutatib, har xil nojo'ya so'zlar bilan gaplashib turganini ko'rib o'ylanib qoldim: «Ularning ota-onasi qayerga qarashyapti ekan? Bu qizlar kelgusida ona bo'lib, qanday farzandlar tarbiyalashadi?»

Bu holatda faqat qizlarni ayblash noo'rin. Nega desangiz, ular misoli nihol, qay tomonda egsangiz, shu yerga qarab egiladi. Balki buning sababi biz, kattalarning loqaydligimiz, bolalarim yaxshi yashasin deb yelib-yugurib, ularning tarbiyasidan, yurish-turishidan yiroqdaligimizdadir? Kunda ishdan charchab kelganlikni bahona qilib, farzandimiz bilan dildan suhbat qurmayotganimizdadir? Vaholanki, ota-ona bolalarini nafaqat moddiy ta'minlashi, balki tarbiyasi va kamoloti uchun ham javobgar. Ular farzandlarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida ham g'amxo'rlik qilishlari shart.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, ota-onalik huquqi bolalar manfaatlariga zid tarzda amalga oshirilishi mumkin emas. Shuningdek, farzandlar ta'lim-tarbiyasiga taalluqli barcha masalalar bolalar manfaatidan kelib chiqqan va ularning fikrini hisobga olgan holda, ota-ona tomonidan kelishuv asosida hal qilinadi.

– Bir tanishim o'g'lini uylan-tirish arafasida, – deydi hamkasbim. – To'yga taniqli san'atkorlardan birini olib kelmoqchi.

Litseyda o'qiydigan qizi otasidan «Menga kompyuter olib bering, o'qishimga zarur bo'lyapti» desa, ota: «Kompyuterga ortiqcha pul yo'q, o'qib dunyo olib beramiding?!», deya javob berganining guvohi bo'ldim.

Taassufki, o'z orzu-havasining quli bo'lgan ota qizining kelajagini emas, tanish-bilishlari oldida ko'krak kerishni o'ylayapti. Shu tobda u farzandining huquqini poymol etayotganini bilarmikan? Yo'q, ota bu haqda o'ylab ham ko'rmagan. Vaholanki, o'sha san'atkorga beradigan puliga bir emas, bir nechta kompyuter sotib olsa bo'ladi.

Yoki pulini faqat chiroyli kiyim-kechag-u turli ziyofatlarga ayamaydigan, yerga muk tushib dars tayyorlayotgan farzandi uchun oddiy stol-stul yoki kerakli o'quv qurollari, badiiy kitoblar olib berishda pulni qizg'anadigan ota-onalar yo'q deysizmi?

Ba'zi hollarda kattalar bolaga o'zi istagan kasbni tanlash huquqini bermaydi. O'zlari istagan yoki o'zlari erisha olmagan kasbga yo'naltirishadi. O'zi istamagan, qiziqishi bo'lmagan kasbni egalab, kelajakda ish faoliyatiga ham shunday ruhda yondashadigan



bola ertaga o'rtamiyona, qo'nimsiz mutaxassis bo'lib qolmaydimi?

Yana bir og'riqli nuqtamiz bor. Chekka tumanlar, ayniqsa, qishloq joylarida qiz bolalarning ta'lim olishiga, kasb-hunar egallashiga monelik qiladiganlar ham topiladi. Axir qizlar kelajakda ona bo'ladi. Bilimi barkamol ona – ayol esa farzand tarbiyasida ham shubhasiz, komilikka intiladi.

Yaponiyada agar ayol oliy ma'lumotli bo'lmasa, turmushga chiqishi qiyin ekan. Ularning fikricha, ayol farzand ko'rib uyda bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lsa ham o'zidagi bor ilmini farzandiga

berishga harakat qiladi. Bizda-chi, ayrimlar urf-odat, rasm-rusumlar niqobi ostida dabdababozlik qilishadi-yu, qizining o'qishiga pul sarflashni ortiqcha xarj deb biladi.

Darhaqiqat, har bir ota-ona farzand ko'rishni niyat qilayotgan ekan, birinchi navbatda, uning moddiy ta'minoti, ma'naviy kamolotga yetkazish uchun tayyor ekanligini his qilishi, uning huquqlariga e'tibor qaratishi va jamiyat uchun xizmat qiladigan, jismonan va ma'nan yetuk insonni tarbiyalashi lozim.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

MUQADDAS QADAMJOLAR

Zomin tumanida 420 dan ziyod turli yodgorliklar mavjud. Shulardan biri Qo'riq qishlog'idagi «Ko'k to'nli ota» ziyoratgohidir. Ushbu muqaddas qadamjo 2,5 gektar maydonni egallagan bo'lib, tuman markazidan 5 kilometr uzoqlikda joylashgan.

«KO'K TO'NLI OTA» ZIYORATGOHI

Ziyoratgoh ikkita binoni o'z ichiga oladi. Biri xonaqoh bo'lib, ichkarisida marmar bilan qoplangan qabr bor. Bu yerda saqlanayotgan marmartosh bo'lagiga arab harflarida «Vazir

Sohib Zabonboy, 1209-yilda vafot etgan» so'zlari yozilgan.

Qishloq ahli ziyoratgohni qang'li urug'i yo'l-boshchisi siymosi bilan bog'laydi Abulg'azi Bahodirxonning «Shajarai tarokima» asarida Ko'k to'nli ota qang'iliklar yetakchisi sifatida tilga olingan.


Qo'riqliklarda og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan rivoyatga ko'ra, Ko'k to'nli ota Tangridan Zomin xalqi uchun suv so'ragan. Ya'ni, tuman hududida minglab buloqlar ko'z ochganini shu zotning iltijolari qabul bo'lgani bilan bog'lanadi. Shu ma'noda, qadamjo to'kinlik va hosildorlik timsoli

sifatida ziyorat qilinadi. Bu yerda dehqonchilik mavsumining boshlanishi hamda ko'klam kelishi munosabati bilan tantanali marosimlar o'tkaziladi.

Ulkan daraxtlar bilan qoplangan ziyoratgoh o'ziga xos mahobatga ega. So'lim tabiat va atrofdagi hukm surayotgan ajib sukunat ruhingizga xotirjamlik baxsh etadi. Tinim bilmaydigan shamollar ta'sirida shovullayotgan keksha chinor va tollar go'yo Ko'k to'nli ota haqidagi rivoyatning chinligiga ishora qilayotgandek tuyuladi.

O'z muxbirimiz.

Jizzax viloyati.



«XAVFSIZ VA SOG‘LOM YURT»

■ Toshkent viloyati

Oylik doirasida viloyat IIBB YHXB va uning quyi tizimdagi xodimlari tomonidan ko‘plab jinoiy holatlarning oldi olinmoqda.

Sir emaski, avtomashinani mast holda boshqarish nafaqat haydovchining o‘ziga, balki yo‘l harakatining boshqa ishtirokchilari hayotiga ham xavf soladi. Toshkent tumanida YPX inspektorlari tomonidan haydovchi transport vositasini mast holda boshqargani aniqlandi.

Nurafshon shahrida esa tungi xizmatga jalb qilingan sohaviy xizmat xodimlari 1990-yilda tug‘ilgan fuqaro Asliddin Dadaboyevni (ism-sharifi o‘zgartirildi) shahardagi «Navro‘z» mahallasida, pana joyda o‘tkir hidli, quritilgan giyohvandlik vositasiga o‘xshash moddani iste‘mol qilib o‘tirganda ushlashdi. Hozirda ushbu holat yuzasidan surishtiruv ishlari olib borilmoqda.

Yana bir holatda maqsadsiz yurgan fuqaro to‘xtatib tekshirilganida, Jinoyat kodeksining tegishli moddasida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir etgani uchun unga

nisbatan hozirda prokuratura organlari tomonidan qidiruv e‘lon qilinganligi ma‘lum bo‘ldi. «Qamoq» ehtiyot chorasi qo‘llanilgani sababli fuqaro tegishligicha Yuqori Chirchiq tumani IIBga topshirildi.

Angren shahridagi reydlar davomida old yon oynalarini ruxsatnomasiz qoraytirgan hamda haydovchilik guvohnomasiga ega bo‘lmasdan rugla o‘tirgan fuqaroga, Oqqo‘rg‘on tumanida esa davlat raqam belgisi yo‘q avtomashinani boshqargan haydovchiga nisbatan tegishli chora ko‘rildi.

Viloyat hududida jamoat tartibini ta‘minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish maqsadida kuchaytirilgan nazorat-reyd tadbirlari davom etmoqda.

Abror POYONOV,
o‘z muxbirimiz.



JINOYATGA JAZO MUQARRAR

To‘raqo‘rg‘on tumanida istiqomat qiluvchi bu yigit mahalla guzaridagi go‘sh t do‘konida qas-sob bo‘lib ishlab, oilasini shu kasbi orqali boqardi. Ish kunlarining birida oldiga qo‘shni mahalladagi tanishi Jovli kelib qoldi.

– O‘zingni shu yerda ekaning yaxshi bo‘ldi, jo‘ra. Shu go‘sh tlar-ning hammasini o‘zim olaman, ammo pulni ertaga tashlab ketaman, maylimi? – dedi hovliqib u. Akrom o‘ylashga ham ulgurmay:

– Bilaman, yo‘q demaysan! Rahmat, juda zarur payti qo‘llading-da, oshna, – deb go‘sh tlarini katta paketlarga joylay ketdi Jovli.

Akrom unga ishonadi. Hisob-kitob qilib, qarz daftariga uning 31 000 000 so‘m qarzi bor deb yozib qo‘ydi. Ammo... Ertaga qarzimni uzib ketaman degan Jovli na o‘zining qorasini ko‘rsatdi, na go‘sh tning pulini birov orqali yetkazdirdi. Akrom qo‘ng‘iroq qilib, qarzni so‘rasa: «Beraman-da, buncha so‘rading!» deb siltab tashlaydigan bo‘ldi.

Shu zayl oradan bir yil ham o‘tdi. Quruq oylikka kun ko‘radigan Akrom o‘z hisobidan ham shuncha qarzni qoplay olmadi. Kutilmagan-da yana Jovli paydo bo‘ldi.

– Aytib qo‘yay, senga bir parcha ham go‘sh t sotmayman, avvalgi qarzlarini to‘lamasang, endi seni ayamayman!

– O‘zingni bos, jo‘ra, senga juda jiddiy taklif bilan keldim. Xo‘p desang, pulga ko‘milasan, – dedi Jovli.

– Oltin topdingmi deyman? – kesatdi Akrom.

– Pul ishlab chiqarish zavodi deyaver... Xullas, gap bunday! Menda 100 000 va 200 000 so‘mlik kupyuralarning qalbaki varianti bor, ammo asliga nihoyatda o‘xshaydi. Uncha-muncha odam farqiga bor-

MO‘MAY BOYLIK ILINJIDA

Afsuski, bugungi kunda odamlarda tez boyish, yengil yo‘l bilan foyda olish istagi kuchaygan. Bu esa ayrimlarni aldov yo‘liga boshlamoqda. Ammo halol mehnat bilan topilgan ozgina rizq harom yo‘l bilan kelgan boylikdan afzaldir. Chunonchi halol rizq inson yuziga nur, oilasiga baraka olib kiradi. Namanganlik Akrom (voqea ishtirokchilarining ismi o‘zgartirildi) bu haqiqatni kech tushundi...



maydi, ishonaver. Men 31 000 000 so‘m qarzim evaziga senga 70 000 000 so‘m soxta pullarni beraman. Ulardan qanday foyda qilish o‘zingga bog‘liq. Masalan, telegram ijtimoiy tarmog‘i orqali guruh ochib, qiziquvchilarga yarim puliga sotsang ham bo‘ladi. Qalay o‘ylapman, zo‘rmi? Xop deyaver, bahonada sen ham ancha daromad ko‘rsan, men esa qarzimdan qutulaman!

Akrom shoshib qoldi. Katta-katta pullar yuragida katta-katta orzularni uyg‘otdi. Egnidagi dag‘al va odmi kiyimidan birinchi marta xijolat chekdi. U ushbu reja-ni amalga oshirsa, oson boyib ketishini o‘yladi, ammo jamiyatga zarar yetkazishini xayoliga ham keltirmadi.

Ikki oshna birlashib, ishga kirishishdi. Jovli Akromning uyali telefon raqamini telegram ijtimoiy tarmog‘idagi o‘ziga tegishli bo‘lgan «Meni izlab top» nomli akauntga ulab qo‘ydi. Akrom bo‘sh qoldi deguncha Jovli-dan olgan

88 000 000 so‘m soxta pullarni sotish uchun telegram orqali xaridor qidiradigan bo‘ldi. Oradan ko‘p ham o‘tmay, o‘lja to‘rga ilindi. O‘zini Toshkent viloyatida yashovchi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi shaxs sifatida tanishtirgan erkak kishi undan soxta pullarni sotib olishini aytib, narxini so‘radi. Akrom 70 000 000 so‘m soxta pullarni 28 000 000 so‘m haqiqiy pullarga sotishini aytadi. Gapi gapiga to‘g‘ri kelib, ish tezda pishadi. Faqat mijoz pullarni Toshkent viloyatiga olib kelish shartini qo‘yadi.

– Bo‘ldi, gap yo‘q, – deya mulozamat qiladi tanimagan-bilmagan mijoziga Akrom. – Bugunoq yo‘lga chiqaman.

Akrom kirakashlardan biri bilan gaplashib, Toshkent viloyatiga yo‘l oladi. Yo‘l-yo‘lakay mijoz bilan gaplashib, qachon va qayerda uchrashishni kelishib oladi. Tungi soat o‘n ikki yarimlar atrofida Toshkent viloyatiga yetib kelgan Akrom mijoz bilan bog‘lanadi.

– O‘rtachirchiq tumanidagi «Ohangaron–Namangan» avtomagistrali bo‘yida uchrashamiz, – deydi mijoz.

Aytilgan manzilga yetib borgan Akrom mijoz kutib turganini ko‘rib ish xamirdan qil sug‘urgandek oson bitayotganidan xursand bo‘ladi. O‘zi bilan olib kelgan 70 000 000 so‘m soxta pullarni unga berib, o‘rniga 28 000 000 so‘m haqiqiy pullarni sanab oladi. Shu payt ularning atrofini huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari o‘rab olishadi. Akrom shundagina qopqonga tushganini tushunadi...

Avtomashinada bo‘lgan yana 100 000 so‘mlik kupyuradagi 18 000 000 so‘m pullar ashyoviy dalil sifatida olinadi. Keyinchalik «Agrobank» ATBning Chinoz filiali tomonidan taqdim qilingan ma‘lumotnomaga ko‘ra, tadbir vaqtida olingan jami 88 000 000 so‘m miqdordagi pullar haqiqiy emasligi ko‘rsatilgan.

Akrom xatolari uchun qonun oldida, albatta, javob beradi. Umid qilamizki, u puch xayollarga ishonmay, ona vataniga sadoqatli bo‘lishni o‘rganadi. Sababi, milliy valyutamizni qalbakilashtirib, muomalaga kiritish mamlakatimiz iqtisodiyotiga zarar yetkazadigan qonunbuzarlikdir.

Sunnatilla ABDURASHIDOV,
kapitan.

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.



★ Будьте бдительны!

А ТЫ ТОЧНО ЗНАЕШЬ, КТО ТЕБЕ ПИШЕТ?

Мошенники становятся изобретательнее, а их схемы – все более правдоподобными. На первый взгляд – обычное сообщение от знакомого или безобидная ссылка. На деле – ловушка, которая может стоить вам аккаунта, а вашим близким – денег.



Сегодня разберем один из самых популярных и опасных способов обмана, а также расскажем о нескольких похожих схемах, на которые попадают даже опытные пользователи.

Как работает схема «Проголосуй за меня»


Вы получаете сообщение: «Проголосуй за меня в конкурсе/опросе» или вас внезапно добавляют в неизвестную группу, где предлагают перейти по ссылке. После перехода вам показывают сайт, который идеально копирует Telegram. Вам предлагают «авторизоваться» и ввести код, пришедший в SMS или прямо в Telegram. Если вы вводите этот код – ваш аккаунт моментально захватывают. Злоумышленники тут же пишут вашим друзьям и родным, выпрашивая деньги от вашего имени.

Похожие схемы, на которые важно обращать внимание

1. «Ошибка входа в Telegram». Вы получаете сообщение: «Мы заметили попытку входа. Подтвердите, что это вы». И снова

– ссылка на фальшивый сайт, где нужно ввести код. Мошенники давят на страх – и люди теряют бдительность.

2. «Доставка заморожена, оплатите 20000 сумов». Вам пишет «служба доставки» и утверждает, что есть недоплата. Ссылка



ка для «оплаты» ведет на сайт, где также предлагают войти через Telegram. Цель – все тот же код.

3. «Ваш канал/бот нарушает правила Telegram». Популярно среди владельцев каналов или чатов. Пугающее сообщение:

«На ваш канал поступила жалоба. Пройдите в модераторский кабинет». Фишинговый сайт, авторизация, код – и доступ к каналу теряется навсегда.

4. «Вы выиграли приз / получили подарок от знакомого», «Твой друг отправил тебе подарок, заведи здесь» – и ссылка. Чтобы «получить подарок», нужно авторизоваться. Дальше все по сценарию...

Как защититься от подобных атак

1. Никогда не вводите и не говорите коды из SMS или Telegram – никому. Ни знакомым, ни «службе поддержки», ни «победителю конкурса».

2. Не переходите по подозрительным ссылкам. Особенно если они пришли неожиданно.

3. Включите двухэтапную аутентификацию (2FA). Это ваш второй замок, который в разы усложняет жизнь злоумышленникам.

4. Привяжите резервный email. Он поможет вернуть доступ, если что-то пойдет не так.

5. Проверяйте отправителя. Если знакомый пишет что-то необычное – позвоните ему. Часто он даже не знает, что «просит» у вас помощи.

Запомните главное! Мошенники не взламывают Telegram – они «взламывают доверие». И чем спокойнее и внимательнее вы относитесь к сообщениям и ссылкам, тем безопаснее ваш цифровой мир.

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (15 – 21 декабрь)



Қўй (21.03 – 20.04). Иш жойингизда муваффақиятлар ва оилада ёқимли ташвишлар кутмоқда. Ҳафтанинг биринчи ярми янги имкониятлар ва муваффақиятлар тўхфа этилиши кутилаяпти. Лекин бу даврда саломатлигингизга жиддий эътибор қаратинг. Якшанба кунини мароқли ҳордиқ чиқаринг.



Бузоқ (21.04 – 20.05). Келаётган ҳафта маблағ жамғариш учун яхши давр, сарф-харажатларни ҳозирча қисман камайтириб турган маъқул. Ҳафтанинг иккинчи ярмида учрашув ва суҳбатлар вақтини бемалол белгилашингиз мумкин. Улар ҳаётингизда ўзгаришлар юз беришини ваъда қилмоқда.



Эгизаклар (21.05 – 21.06). Ҳафта сиз учун унумли кечиши кутилмоқда. Агар кузатувчанликни оширсангиз, иш жойингизда мартабангиз юқорилаши эҳтимоли юқори. Бу даврда сира қийналмасдан рўзғор ҳамда молиявий муаммоларни бар-тараф этишга эришасиз.



Қисқичбақа (22.06 – 22.07). Бу даврда нотаниш кишилар билан мулоқот қилишингизга тўғри келса, сирларингизни айтмаганингиз маъқул. Ички ҳис-туйғуларни ўзингиздан бошқасига ишонманг. Молиявий муаммолар осонгина бароридан келади.



Арслон (23.07 – 23.08). Ортиқча таъсирчанлик оиладаги муносабатларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бор куч-шижоатингизни тортишувлар эмас, иш ва спортга сарфланг. Саломатликка жиддий эътибор қаратинг.



Паризод (24.08 – 23.09). Ҳафтанинг биринчи ярмида оғир ёки давомли меҳнатдан имкон қадар йироқ туринг. Чунки бу вақтда саломатлигингиз панд бериши мумкин. Кейинги кунлар молиявий даромад ва иш фаолиятидаги ўсишни ваъда қилмоқда. Дам олиш кунларини оила даврасида ёки табиат қўйнида ўтказишга ҳаракат қилинг.



Тарози (24.09 – 23.10). Сиз учун ушбу ҳафтанинг асосий ва муҳим воқеалари иш жойингизда содир бўлади. Биринчи галда, юмушларнинг энг устуворига қўл уриб, белгиланган вазифаларни ҳафта охиригача бажариб тугатинг. Дам олиш кунлари барча ташвишларни унутиб, мириқиб дам олишга ҳаракат қилинг.



Чаён (24.10 – 22.11). Сизни қизиқарли ва ёдда қолувчи воқеаларга бой ҳафта кутмоқда. Аммо шубҳали ва қалтис молиявий ишларга ара-лашмасликка ҳаракат қилиб, муғомбир танишлар билан мулоқотни узинг. Душанба кунини баъзи ҳамкасблар билан муносабатлар изига тушади, асосийси, чегарани сақлаб, бетакаллуфликдан йироқ бўлинг.



Ўқотар (23.11 – 21.12). Сиз умид боғлаган ҳаётдаги ўзгаришларни ортга суриб турган маъқул, чунки бу давр ўзгаришлар учун унчалик мос эмас. Иш жойингизда ҳамкасблар билан тушунмовчиликлар кузатилиши мумкин. Низо ва келишмовчиликни узоққа чўзмасликка ҳаракат қилинг, акс ҳолда, кейинчалик ўзаро муносабатларни тиклаш қийин кечади.



Тоғ эчкиси (22.12 – 20.01). Бу ҳафта тақдир сиз учун яхши хабарлар ҳозирламоқда. Сешанба кунидан кўпчиликнинг эътибори марказида бўлишни бошлайсиз. Тақдирингизни ўзгартириб юборувчи ёки иш фаолиятига ижобий таъсир кўрсатувчи инсонлар билан танишувлар кузатилиши мумкин.



Қовға (21.01 – 19.02). Бу ҳафта касб-хунарингизга оид ишлар бироз тўхтаб қолиши эҳтимоли юқори. Асосийси, хавотир ва саро-симага тушманг. Буни шунчаки вақтинчалик танаффус, куч тўплаб олиш учун қўшимча давр деб қабул қилинг. Имкон қадар ёлғиз қолиб, ҳаёт йўлинингизни изга солиш борасида чуқур мулоҳаза юритишга ҳаракат қилинг.



Балиқ (20.02 – 20.03). Бу ҳафта ишда ҳам, шахсий ҳаётда ҳам кўпгина жиддий тўсиқларга дуч келишингиз мумкин. Шунинг учун ҳафта бошидан бунга руҳан тайёр туринг. Сиз албатта тўсиқларни мардона енгиб ўтасиз. Бунда ҳамкасбларингиз ҳам яқиндан ёрдам кўрсатиши эҳтимолдан холи эмас.



SALOMATLIK SAHIFASI

BOTULIZMDAN
EHTIYOT
BO'LING!

Oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishlar ichida juda og'ir kechadigan kasalliklardan biri botulizmdir.

XAVFLI JIHATI
NIMADA?

Botulizm tayoqchasi anaerob, ya'ni kislorodsiz sharoitda o'sadigan mikroblar oilasiga mansub.

Bu mikroblar spora (qobiq) hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgani sababli, tashqi muhit ta'sirlariga juda chidamli bo'lib, qaynatganda ham o'lmaydi, 120 daraja haroratda 30 daqiqada, sporasi 20 foizli zararsizlantiruvchi formalin ta'sirida 24 soatda jonsizlanishi mumkin. Bu mikroba toksini me'da va ichak shirasi ta'sirida o'z kuchini yo'qotmaydi, u qonga so'rilib, inson organizmini zaharlaydi. Botulizm bakteriyasi tashqi muhitda quruq sharoitda,

tuproqda uzoq yillargacha saqlanadi.

Kasallik asosan uy sharoitida tayyorlangan dudlangan baliq va go'sht, sabzavot va meva konservalarini iste'mol qilish oqibatida kelib chiqadi. Aholi o'rtasida botulizm bilan xastalanish asosan noyabr oyidan boshlanib, may oyigacha, ya'ni uy sharoitida tayyorlangan konserva mahsulotlarini iste'mol qilish davrida qayd etiladi. Botulizm bilan kasallanish hollari tahlil qilinganda, asosan uy sharoitida tayyorlangan marinadlangan bodring, pomidor, patisson, qalampir, qo'ziqorin, karam konservalari, baqlajon ikra va dudlangan baliq kabi mahsulotlarni iste'mol

qilish kasallik kelib chiqishiga sabab sifatida ko'rsatiladi.

KLINIK BELGILARI

Kasallikning klinik belgilari to'satdan boshlanib, bemorlar xastalik boshlangan vaqtini aksariyat hollarda aniq aytadilar. Botulizm holsizlanish, bosh og'rig'i, og'iz qurishi bilan boshlanadi. Ba'zida ko'ngil aynishi, qayt qilish, bosh aylanishi va 1-2 marotaba ichning suyuq ketishi kabi kasallik belgilari qisqa vaqt kuzatiladi. Bundan tashqari, to'sh suyagi ortida og'riq kuzatilib, tez-tez kekirish paydo bo'ladi.

Shu o'rinda og'riq va damlanish hollari ham uchraydi. Qayt qilish va ich ketishi qisqa vaqt davom

etib, nevrologik belgilar boshlanganidan so'ng odatda yo'qoladi. Ich ketishi to'xtab, qabziyat yuzaga keladi, me'dadan ozuqa moddasi evakuatsiyasi sekinlashib, hatto to'xtab qolishi mumkin. Ko'z oldida «tuman», «parda» paydo bo'lishi, bitta buyum ikkita bo'lib ko'rinishi, ko'z sohasining harakati cheklanishi, qorachiqalar kengayib, ko'z qovoqlarining ikki tomonlama qisilishi, yutinishning qiyinlashuvi yoki umuman amalga oshmay qolishi, ovoz o'zgarib pasaya borishi va tiniqligi yo'qolishi, og'ir ahvollarida esa bemorning gapiga tushunib bo'lmaslik kabi kasallikning nevrologik belgilari yaqqol namoyon bo'ladi.

ODDIY QOIDALARGA
QAT'IY RIOYA QILING

*Bozorlarda va aholi gavjum bo'ladigan joylarda fuqarolar tomonidan uy sharoitlarida tayyorlanib, noqonuniy ravishda sotilayotgan, sifati kafolatlanmagan dudlangan go'sht va baliqlarni hamda sabzavot-meva konserva mahsulotlarini xarid qilmang. Shaxsiy xonadonlarda tayyorlangan bu kabi mahsulotlar kasallik keltirib chiqarishi mumkinligini unutmang;

*oziq-ovqat do'konidan go'sht, baliq, qo'ziqorin va sabzavot-meva konserva mahsulotlarini hamda dudlangan go'sht va baliq mahsulotlarini xarid qilishdan oldin ushbu mahsulotlarning yorliqlari va muvofiqlik sertifikatlarini borligiga e'tibor bering;

*do'konlar va bozorlardan saqlash muddatlari o'tgan, yorliqlari yo'q, idishlarining butunligi buzilgan, qopqoqlari shishgan, hamda muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lmagan konserva mahsulotlarini aslo xarid qilmang;

*o'zingizda yoki yaqinlaringizda kasallikning yuqorida qayd etib o'tilgan alomatlarini sezsangiz, zudlik bilan eng yaqin tibbiy muassasaga murojaat etishni unutmang. Shifoxonada o'z vaqtida ko'rsatilgan malakali tibbiy yordam bemorning sog'ayib ketishiga imkon beradi.

Dilnoza MO'MINOVA,
IV Markaziy poliklinikasi
nevrolog shifokori.

ЗДОРОВЬЕ

ВНЕЗАПНО УПАЛО ДАВЛЕНИЕ?

Такое случается у многих: кружится голова, темнеет в глазах, появляется слабость. Главное – не паниковать. Эффективные способы, которые помогут вернуть силы и улучшить самочувствие:



На фото: медицинская сестра Центральной поликлиники МВД Зебохон Худойбердиева.

1. Лягте и приподнимите ноги выше уровня сердца. Подложите подушку, свернутое одеяло или что-то под руку. Это поможет крови быстрее дойти до мозга.

2. Выпейте стакан воды или сладкий чай. Обезвоживание и низкий уровень сахара часто становятся причиной падения давления.

3. Съешьте что-то соленое. Соль помогает удерживать жидкость в организме и способствует нормализации давления.

4. Сделайте 10 глубоких вдохов и выдохов. Это стабилизирует дыхание и насытит кровь кислородом.

ЧЕМ ПОЛЕЗЕН
ОТВАР ШИПОВНИКА

Шиповник обладает кроветворным действием, повышает сопротивляемость организма к вредным воздействиям окружающей среды, нормализует работу желчного пузыря и печени, прекрасно борется с авитаминозом и истощением, тонизирует организм, а так же повышает иммунитет. Он обладает мочегонным эффектом, что благотворно влияет на работу почек и желудка.

Как правило, для лечения или восстановления здоровья используют отвар шиповника.

Чтобы достичь максимального оздоровительного эффекта шиповник необходимо правильно заваривать. Рекомендуется готовить настой именно в термосе, это позволит полезным веществам не

5. Помассируйте уши или ладони. Легкий массаж активизирует кровообращение и помогает быстрее восстановить тонус.

Учтите: если падение давления повторяется часто, сопровождается сильной слабостью, болью в груди или другими тревожными симптомами обязательно обратитесь к врачу.

только полнее раскрыться, но и сохраниться.

Важно помнить, что в 15 ягодках шиповника содержится суточная норма витамина С и превышать ее не стоит. Поэтому, в целях профилактики достаточно употреблять по полстакана отвара 3 раза в день, если врачом не рекомендовано иное. Детям разовую дозу отвара следует разбавить кипяченой водой в пропорции 50/50.

Обязательно прополощите рот после целебного напитка, чтобы защитить зубы от разрушающих кислот. После 7 дней приема стоит сделать небольшой перерыв.

Всегда храните плоды в темном месте, выбрав для этого тканевый мешочек или банку, так дольше сохранятся полезные свойства продукта.



PATRUL SHAHAR KEZADI

TINCHLIK HUKM SURGAN JOYDA
TARAQQIYOT BO'LADI

Farg'ona viloyati IIB Birinchi mintaqaviy hududi PPX otryadi 1-guruh bo'linma komandiri, serjant Soyibjon Jo'rayev, safdorlar Yahyo Hamdamov hamda Azizjon A'zamjonov Marg'ilon shahrining «Do'stlik» mahallasi hududida xizmat olib borayotgan vaqtda, ularga ko'zi tushgan bir fuqaro negadir o'zini bezovta tuta boshladi.

Xodimlar fuqaroni to'xtatib, u bilan suhbatlashganda, o'zini Marg'ilon shahar «Navbahor» MFYda yashovchi, 1975-yilda tug'ilgan A.B. deb tanishtirdi. Xolislar ishtirokida uning yonini ko'zdan kechirishgan edi, shubhalar o'z tasdig'ini topdi. Uning yonidan 1,25 gramm gashish giyohvandlik vositasi topildi.

Mazkur guruh inspektorlari, safdor Vohid Kamolov hamda safdor Anvar Yulchiyevlar ham yaqinda o'tkazilgan «Qidiruv» tadbiri davomida muqaddam jinoyat sodir etib, tergov organlaridan yashirib yurgan fuqaroni aniqlashga muvaffaq bo'lishdi. Jinoyat sodir etganligi uchun

jinoyat ishlari bo'yicha Marg'ilon shahar sudi tomonidan «qamoq» ehtiyot chorasi qo'llanilgan holda, qidiruv e'lon qilingan A.K. ismli mazkur shaxs Farg'ona shahrida yashirib yurganligi aniqlanib, ushlendi va 10-sonli tergov hibsonasiga joylashtirildi.

Biz hikoya qilayotgan PPX otryadi 1-guruhining shaxsiy tarkibi ko'hna va hamisha navqiron Marg'ilon shahrida jamoat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xizmat olib borishadi. Hunarmandchilik markazi sifatida dong tarat-

gan, ipak matolari, atlas-u adrasi bilan dunyoga mashhur bo'lgan bu qadim shahar bugun tarix hamda zamonaviylikni o'zida uyg'unlashtirgan megapolisga aylanib bormoqda. Shu bois sarmoya kiritish istagida kelayotgan xorijiy investorlar, ma'naviy ozuqa olish



uchun kelayotgan sayyohlarning son-sanog'i yo'q.

Mutaxassislarning qayd etishicha, Marg'ildonda 20 tadan ziyod tarixiy qadamjolar, muzeylar, yana 20 ga yaqin hunarmandchilikka ixtisoslashgan markazlar mavjud. Bu yil shaharda 4 ta xalqaro nufuzli festival va anjumanlar o'tkazildi. Yil davomida 1000 nafardan ziyod xorijlik va 3000 nafardan ortiq mahalliy sayyohlar tashrif buyurdi.

Festivalni tinch va osoyishta o'tkazishga PPX otryadi 1-guruhining shaxsiy tarkibi ham munosib hissa qo'shdi.

– Xodimlarimiz shaharning asosiy shoh ko'chalari va gavjum hududlarida 5 ta avtopatrul va 6 ta piyoda patrullik yo'nalishlarida xizmat olib borishmoqda, – deydi guruh komandiri, katta leytenant Asilbek Obidov. – Shahrimizning investitsiyaviy va sayyohlik salohiyati yuksalib borayotganini hisobga olib, hunarmandchilik markazlari, mehmonxonalar va yirik sanoat korxonalari joylashgan ko'chalarga ko'proq e'tibor qaratyapmiz. Maqsadimiz – Marg'ilonni sayyohlar uchun ham, fuqarolarimiz uchun ham osoyishta manzilga aylantirish.

Osoyishtalik posbonlarining hushyorligi tufayli ko'plab ko'ngilsiz holatlarning oldi olinayotgani e'tiborga sazovor. Masalan, yilning o'tgan davrida muqaddam jinoyat sodir etib, qidiruvda yurgan 37 nafar shaxs ushlanib, tergov organlariga topshirildi. 16 ta jinoyat «issiq izida» fosh etildi. 363 ta o'tkir tig'li jism olib qo'yilib, jinoyat sodir etilishining oldi olindi. 13 170 ta turli xildagi huquqbuzarliklar aniqlanib, tegishli tartibda bayonnoma rasmiylashtirildi.

Ayni paytda shaharga yondosh hududda «Yangi Marg'ilon» massivi, Burhoniddin Marg'iloniy ilmiy-ma'rifiy turizm markazi, 10 qavatli zamonaviy mehmonxona, yirik xalqaro savdo markazi va texnopark barpo etilmoqda. Bu inshootlar shahar qiyofasini tubdan o'zgartirish bilan birga, sayyohlar oqimini ko'paytiradi. Shu bois mazkur massivda ham yangi patrullik yo'nalishlari tashkil etilishi rejalashtirilgan. Zero, tinch va osoyishta manzillarda taraqqiyot bo'ladi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



QILMISH-QIDIRMISH

Asli nurotalik A.B. buxorolik bir fuqaro jiyanini ichki ishlar organlari xizmatiga kiritish niyatidaligidan xabar topadi. U belini og'ritmay, mo'may pul topish ilinjida darhol «hojatbaror» qiyofasiga kirib, o'zi ham shu sohada ishlashini, bu masalani xuddi «xamirdan qil sug'urgandek» osongina bitirishini aytadi. «Xohlasangiz, jiyaningizni 5000 AQSH dollari evaziga Navoiy viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasiga ishga joylashtiraman», – deydi.

«HOJATBAROR»

Yoshlar orasida ichki ishlar organi xodimi bo'lishni orzu qilganlar ko'plab topiladi. Bu orzuga yetishish oson ish emas. Ammo oramizda hali ham mazkur tizimga kadrlar tanlash shaffoflik va ochiqlik tamoyili asosida amalga oshirilishiga shubha bilan qaraydiganlar, «Pul bo'lsa, changalda sho'rva» deb hisoblaydiganlar uchrab turadi.

Telefon orqali suhbatlardan birida u «harakat»ni boshlab yuborishi uchun pul zarurligini bildirib, 500 AQSH dollarini yetkazib berishini so'raydi. «Faqat bu «xamir uchidan patir», xolos», deya ta'kid-

lab qo'yadi. Uning o'zaro suhbat davomidagi oldi-qochdi gaplari tog'a-jiyanda shubha uyg'otadi. Shuning uchun ular IIV SHXBB Navoiy viloyati bo'yicha bo'limiga ariza bilan murojaat qilishadi.

O'tkazilgan tezkor tadbir chog'ida A.B. kelishilgan summadan 500 AQSH dollarini olayotgan paytida qo'lga olinadi. Ushbu holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, hozirda viloyat IIB huzuridagi Tergov

boshqarmasi tomonidan dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, mansabdor shaxs boshqalarni amaldagi qonunlarni, belgilangan tartib-qoidalarini chetlab o'tgan holda, ichki ishlar organlari xizmatiga qabul qilish vakolatiga ega emas. Shunday ekan, bu haqda qop-qop va'dalar beradigan kimsalarning hiyla-nayrang tuzog'iga ilinib qolmang.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

SHOHSUPA SARI YO'L

IIV «Jar» sport-sog'lomlashtirish majmuasida bir hafta davom etgan voleybol bo'yicha erkaklar va ayollar jamoalari o'rtasidagi O'zbekiston kubogi musobaqasi yakuniga yetdi. Unda 15 ta ayollar, 24 ta erkaklar, jami 39 ta jamoa g'oliblik uchun murosasiz kurash olib bordi.

Musobaqa g'oliblarini taqdirlash marosimida Ichki ishlar vazirligi rahbariyati, Sport vazirligi, Voleybol federatsiyasi va Toshkent shahar hokimligi vakillari ishtirok etdi. Dastavval «Eng yaxshi to'p uzatuvchi», «Eng yaxshi libero», «Eng yaxshi hujumchi», «Eng

yaxshi to'siq qo'yuvchi» kabi nominatsiyalar g'oliblari tantanali ravishda taqdirlandi. So'ngra g'olib va sovrindor jamoalar nomi e'lon qilindi. Unga ko'ra, ayollar o'rtasida Namangan davlat universiteti jamoasi birinchi, Buxoro davlat universiteti jamoasi ikkinchi, Andijon davlat pediatriya instituti vakillari uchinchi o'rinni egalladi. Erkaklar jamoalari o'rtasida esa IIVning «Road patrol» jamoasi g'oliblikni qo'lga kiritdi. IIVning yana bir jamoasi – «Humo» ikkinchi, «O'ztelekom» esa uchinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Ular kubok, turli darajadagi medallar va qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi.



Shuningdek, O'zbekiston aralash jang san'atlari assotsiatsiyasi tashabbusi bilan tashkil etilgan yana bir musobaqaga start berildi.

IIV 1-Toshkent akademik litseyi o'quvchilarining ko'rgazmali chiqishidan so'ng musobaqa yarim finalchilari e'lon qilindi. Bellashuv nihoyatda qizg'in tarzda boshlandi.

Musobaqa natijalari bilan www.postda.uz rasmiy kanali orqali tanishishingiz mumkin.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

NAVOIY VILOYATI

Viloyat «Dinamo» jismoniy tarbiya va sport jamiyati kengashining tashabbusi bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari o'rtasida erkin kurash bo'yicha chempionat o'tkazildi.

Qizg'in va murosasiz ruhda kechgan musobaqa natijalariga ko'ra, **3-o'rinni** Navoiy kon-metallurgiya kombinati FVB vakillari, **2-o'rinni** viloyat FVB jamoasi egalladi. Faxrli **1-o'ringa** esa viloyat IIB jamoasi polvonlari munosib deb topildi.

G'olib hamda sovrindorlar diplom, medal, kubok va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Temir QURBONOV
Yuliya KIM

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari

bo'yicha:
71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
460010860262877031101179003
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzilimiz: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 3491.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44995 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^A-uy.